

# POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan  
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ \* AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

## «RAHMAT SIZGA, INSPEKTOR!»

Farg'ona shahri ko'chalarida, ayniqsa, maktablar atrofidagi gavjum chorralarda baland bo'lyi, istarasi issiq bir inspektorni ko'rish mumkin. Uning qarashlarida mas'uliyat, harakatlarida esa fidoyilik mujassam. Bu — Farg'ona viloyati IIB Birinchi mintaqaviy hudud saf bo'linmalari yo'l-patrul xizmati otryadi birinchi safarbar guruhi katta inspektori, katta serjant Hamidullo Mamajonovdir.



➔ 9

AMIR  
TEMURNING  
HARBIY-  
SIYOSIY  
SALOHIYATI



➔ 5

The advantages of the  
three-shift service system

According to captain Oybek Salayev, Deputy commander of the 1st Detachment of the PPS of the Chilanzar district Department for coordination of the activities of internal affairs bodies, the three-shift service system introduced following the presidential directives of January 2026 has elevated public safety by ensuring uninterrupted 24-hour patrolling.

➔ 14

«DO'ST BILAN OBOD  
UYING...»



➔ 13

## Sayyor qabul

## TIZIMLI ISHLAR DAVOM ETMOQDA



**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan joylarda sayyor qabullar o'tkazilmoqda. Ushbu tadbirlar davomida fuqarolarning murojaatlari batafsil o'rganilib, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan aniq choralar ko'rilmogda.**

Yurtboshimiz aholi bilan ochiq, samarali va doimiy muloqot qilishni muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab bergan edi. Ana shu vazifadan kelib chiqqan holda, fuqarolarning murojaatlari chuqur tahlil qilinyapti. Kelib tushayotgan ariza va takliflarni amaldagi qonunlarga muvofiq o'z vaqtida ko'rib chiqish hamda hal etish borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, joriy yilning 29-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov rahbarligida, mas'ul mutasaddilar ishtirokida aholi uchun navbatdagi sayyor qabul tashkil etildi. Qabul jarayonida aholiga qulay sharoit yaratish maqsadida, ob-havo hamda masofaviy omillar inobatga olindi. Xususan, poytaxtimiz va Toshkent viloyati fuqarolari bilan

yuzma-yuz muloqot o'tkazilgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlarda yashovchilar uchun qabullar videokonferensaloqa rejimida tashkil etildi.

Ushbu tadbir davomida jami 521 ta murojaat qayd qilindi. Ularning aksariyati fuqarolar o'rtasidagi xavfsizligi, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonlari, shuningdek, kadrlar bilan ishlash masalalariga oid muammolarni qamrab oldi. Murojaatlarning 250 tasi joyida ijobiy hal qilindi. Qolgan 271 ta murojaat esa qo'shimcha o'rganish talab etilgan sababli, ular nazoratga olinib, mas'ul idoralar hamkorligida ko'rib chiqish uchun tegishli topshiriqlar berildi.

Shu bilan birga, joylardagi ichki ishlar organlari rahbarlari tomonidan o'tkazilgan qabullarda jami 475 ta murojaat qabul qilindi. Ularning 185 tasi joyida ijobiy yechim topgan bo'lsa, 290 tasi qo'shimcha tekshiruv asosida ko'rib chiqish uchun yo'naltirildi.

Sayyor qabullar davomida aholini tashvishga solayotgan masalalar, huquqiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari atroflicha muhokama qilinib, fuqarolarga tegishli tushuntirishlar berildi. Bunday tadbirlar tizimli ravishda mamlakatimizning barcha hududlarida davom etmoqda.

**O'z muxbirimiz.**

## Xavfsiz turizm

## «XUSH GALIBSIZ XORAZIMA!»

**Bugungi kunda Xorazm viloyati turizm sohasida jadal rivojlanayotgan hududlardan biriga aylanib bormoqda. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda viloyatga 2,1 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, mutaxassislar joriy yilda bu ko'rsatkich 1,5 barobarga oshishini bashorat qilishmoqda.**

Viloyatda 400 ga yaqin tarixiy va madaniy obyektlar mavjudligi sayyohlar oqimining yanada ortishiga xizmat qilyapti. Asosan Rossiya, Ispaniya, Germaniya, Fransiya, Xitoy va Italiya kabi mamlakatlardan kelayotgan mehmonlar uchun xavfsiz muhit yaratish esa eng dolzarb vazifalardan biridir. Xorazm viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari bu borada tizimli ishlar olib bormoqda.

Ushbu yo'nalishda xizmat qilayotgan JTSG inspektori, leytenant Quvonchbek Rajabov sohadagi yangiliklar haqida ma'lumotlar berdi. Uning ta'kidlashicha, xavfsiz turizm sohasida ishlash xodimdan nafaqat chet tillarini bilishni, balki yuksak insoniy fazilatlarini ham talab etadi:

– Bizning xizmatimizda sayyohlarga e'tiborli bo'lish bilan birga, turli

nostandart vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyati juda muhim. Har kuni mayda e'tiborsizlikdan tortib, jiddiy muammolargacha bo'lgan holatlarga duch kelamiz. Hushyor bo'lish va yordamga muhtojlarga

ko'maklashish – asosiy vazifamiz, – deydi u.

Quvonchbek yoshligidan odamlarga yordam berishni orzu qilgani uchun aynan shu sohani tanlagan. Uning chet tillarini bilishi xorijlik mehmonlar bilan muloqotni ancha osonlashtiradi. Ayniqsa, yo'qotilgan buyumlarni topib, egalariga qaytarish borasidagi sa'y-harakatlar alohida tahsinga loyiq.

Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari «Ichan qal'a» majmuasida sayyohlar bilan targ'ibot uchrashuvlari o'tkazishyapti. Unda mehmonlarga kiberfiribgarlikdan ehtiyot bo'lish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha tushuntirishlar berilmoqda.

Xorazmda xavfsiz turizm tizimining samarali yo'lga qo'yilgani vohamizga kelayotgan har bir mehmonning xavfsizligi va ijobiy taassurotlar bilan qaytishini ta'minlamoqda. Ichki ishlar organlari xodimlarining fidokorona xizmatlari esa O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlaydi.

**Nilufar JABBOROVA,**  
o'z muxbirimiz.



Oramizdagi odamlar

## IRODASI MUSTAHKAM INSON

**Oramizda shunday insonlar borki, ularning mashaqqatli hayot yo'li ayrim to'rt muchasi sog'lom kishilar uchun haqiqiy ibrat bo'la oladi. Shunday insonlardan biri narpaylik Muzaffar Safarovdir.**

Tumanning «Tortuvli» mahallasida yashovchi lavhamiz qahramoni imkoniyati cheklangan bo'lsada, uyda o'tirib qolmadi. Qo'llariga tayanib, olg'a intildi. U bolaligidanoq texnikaga, ayniqsa, elektrotexnikaga qiziqardi. Radio, chiroq yoki biror elektr jihozi buzilsa, uni darrov ochib ko'rib, tuzatishga urinardi. Vaqt o'tishi bilan bu qiziqish kasbga aylandi. Bilimdan tajribasi, tajribadan mahorati oshib, mohir ustaga aylangach, ustaxonasiga elektrotexnika buyumlarini tuzatib bering, deb keluvchi odamlar ko'paydi. Mana 20 yildirki u qishloqdoshlarining buzilgan radios, televizori, changyutkichi yoki dazmoli bormi – hammasini tuzatib beradi. Nosozi buyumlarga yana hayot bag'ishlaydi.

Biz ham uning mo'jazzina ustaxonasida bo'lib, ish jarayonini kuzatdik. Bir talay ta'mirtalab eski radio, televizor va boshqa buyumlar bor. Muzaffar ularning har birini diqqat bilan ko'rib, «kasali»ni topishga urinardi. Tuzalغانlarini olib qayta-

yotgan mijozlar esa rahmat aytib, kulib xayrlashardi.

Muzaffar mahalladagi yoshlarga ham hunarini o'rgatyapti. Ular bilan suhbatlashib, qiziqqan savollariga javob beradi. Ta'mirlash sir-asrorlarini erinmay tushuntiradi. Aziz Shoniyozov tumandagi 35-umumta'lim maktabining 6-sinfida tahsil oladi. U ham bo'sh vaqti bo'ldi deguncha, Muzaffar Safarovning chog'roqqina ustaxonasiga oshiqadi.

– Yura olmasam-da, taqdirimdan nolimayman. Shukrki, aqlim va zehnim bor. Qo'llarim ishlaydi. Muhimi, odamlar menga ishonishadi. Shu bois, o'zimni hayotdan chetda qolgandek his qilmayman. Shuning o'zi men uchun katta baxt, – deydi qahramonimiz. – Albatta, hayotimda qiyin kunlar ham bo'lgan. Ammo men har doim ularni yengib o'tdim va o'tyapman. Qachonki insonda kuchli iroda va aniq maqsad bo'lsa, ishdan, mashaqqatli mehnatdan qochmasa, u har qanday to'siqni yengib o'ta oladi.



Muzaffar turmush o'rtog'i Zarnigor bilan 2 nafar farzandni ulg'aytirishyapti. Uydagi dehqonchilik va chorvachilik yumushlarini bajarishda ayoli yaqindan yordamchi. Birgalikdagi mehnatlari, davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida har oy bo'lib to'lash sharti bilan kredit asosida namunali uylardan birini xarid qilishdi.

Imkoniyati cheklangan bo'lsada, irodasi cheklanmagan Muzaffar

Safarov kabi insonlarning maqsad sari intilishi, orzu-umidlari ro'yobi yo'lida kurashi ko'pchilik uchun ilhom manbayi, desak, sira mubolag'a bo'lmaydi. Uning matonatli mehnati davlatimiz tomonidan munosib qo'llab-quvvatlanib, 2025-yilda Prezidentimiz farmoniga muvofiq «Jasorat» medali bilan taqdirlandi.

**Umida MAMADALIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

*Samarqand viloyati.*

Yo'l boshida

## ADASHGAN KO'NGILLAR CHIROG'I

**Hayot yo'li har doim ham tekis va ravon bo'lavermaydi. Ayniqsa, oq-qorani tanish yoshidagi o'smirlar uchun gohida hissiyotlar to'lqini, gohida esa tajribasizlik pand berishi bor gap. Namangan viloyati IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida tashkil etilgan navbatdagi profilaktik tadbir ana shunday adashgan ko'ngillarga yo'l ko'rsatish maqsadida o'tkazildi.**

Tadbirning eng samimiy daqiqalari markaz boshlig'i, podpolkovnik Nigora Qayimova va yoshlar o'rtasidagi ochiq muloqotda



namoyon bo'ldi. Markaz rahbari yoshlarning har bir gapini diqqat bilan tinglarkan, qonunlarga rioya qilish shunchaki majburiyat emas,

balki o'zligini asrab qolish ekanligini hayotiy misollar bilan tushuntirdi.

– «Har bir yosh – bir olam. Ularning xatosi jamiyatning og'rig'i, muvaffaqiyati esa umumiy g'alaba», degan tamoyil asosida har bir ishtirokchiga individual yondashildi, – deydi markaz rahbari, podpolkovnik Nigora Qayimova. – Ularning muammolari, qiziqishlari va orzulari o'rganilib, kelajakda jamiyatda munosib o'rin topishlari uchun zarur tavsiyalar berildi.

Insonning xulq-atvori uning ichki olami bilan chambarchas bog'liq. Shuni hisobga olgan holda, tadbirga Namangan shahar maktab va maktabgacha ta'lim bo'limining malakali psixologlari jalb etildi. Mutaxassislar yoshlar

bilan guruhli va yakka tartibda ishlash orqali ularning yashirin kechinmalarini o'rganishdi.

Ayniqsa, «Oila» va «Men yoqtirgan rang» metodikalari asosidagi mashg'ulotlar yoshlarning hissiy holatini tahlil qilishda qo'l keldi. Ranglar orqali o'zini ifoda etgan o'smirlar ichidagi agressiya va stressdan xalos bo'lish yo'llarini o'rganishdi. Bu nafaqat profilaktika, balki ruhiy qayta tiklanish jarayoni bo'ldi.

Markaz xodimlari tomonidan yoshlarning xonadonlariga borilib, yashash shart-sharoitlari, oilaviy muhiti va eng muhimi, maktab darslariga qatnashish holati doimiy o'rganilmoqda.

Oldinda yanada muhim rejalar turibdi: ota-onalar bilan hamkorlik, huquqiy seminarlar va muntazam treninglar. Maqsad esa bitta – yoshlarni huquqbuzarlik ko'chasi-dan uzoq tutish va barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish.

Bugun berilgan to'g'ri tarbiya va ko'rsatilgan mehr-shafqat ertaga minglab yoshlarning taqdirini ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin. Ushbu amaliy harakatlar aynan ana shu olijanob maqsadga xizmat qilmoqda.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Namangan viloyati.*



Til – millat ko'z gusi

# AJDODLAR NAFASI, AVLODLAR OVOZI

O'zbek tilining shakllanishi bir necha ming yillik murakkab tarixiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Uning o'ziga xosligi – boqiyigidadir. O'rxun-Enasoy bitiktoshlaridagi qat'iyat, «Qutadg'u bilig»dagi adolat va Navoiy g'azallaridagi ilohiy ishq aynan shu tilda dunyoga keldi.

«Qutadg'u bilig» – shunchaki kitob emas, balki qadimiy turkiy tilimizning bebaho xazinasi. Agar bu asar matniga badiiy nigoh bilan qaralsa, undagi har bir so'z ming yillar silsilasidan o'tib kelayotgan



durdona ga o'xshaydi.

Yusuf Xos Hojib tilni «ko'ngilning tili», «aqlning tarjimoni» deb ta'riflaydi. Undagi «til», «so'z», «bilig» kabi so'zlar bugun ham salkam o'n asr avvalgi jozibasini yo'qotmagan. Asarda quyoshning chiqishi «Kuntug'di» (Kun tug'ildi) deb atalishi naqadar go'zal tashbeh! Quyosh – adolat timsoli, uning nuri esa zulmatni haydovchi haqiqatdir.

«Qutadg'u bilig» – ma'naviyat xazinasi bo'lsa, XI asrda Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan

«Devoni lug'otit turk» (Turkiy so'zlar lug'ati) – turkiy tilning arab tilidan qolishmasligini, uning «poygasiz otdek» uchqur va boy ekanligini isbotlash uchun yozilgan

bebaho yodgorlikdir. Koshg'ariy turkiy so'zlarni go'yo javohirlarni saralagan zargardek to'plagan. Lug'atda keltirilgan 8 mingdan ortiq so'zning aksariyati bugun biz kundalik hayotda qo'llayotgan «ota», «ona», «tog'», «suv», «ot» kabi so'zlardir. Ular ming yillar osha o'zgarishsiz bizgacha yetib kelgan jonli merosdir.

Biz nega yuqoridagi misollarni keltirib o'tdik? Sababi, o'zbek tilini buzib talqin qilish, uning imlo va nutq qoidalariga rioya qilmaslik bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarda til qoidalariga e'tiborsizlik, qisqartmalar va tushunarsiz so'zlarning ko'payishi, savodsizlarcha yozishmalar tilning sofligiga putur yetkazmoqda. Davlat tili me'yorlariga amal qilmaslik nafaqat ma'naviy, balki huquqiy hurmatsizlik sifatida ham talqin etiladi. Shaharlarimiz ko'chalaridagi peshlavhalarga boqing: imlo xatolaridan ko'z yosh to'kayotgan so'zlar bizdan najot kutayotgandek

tuyuladi. Zero, birgina harfning noto'g'ri qo'yilishi yoki tushirib qoldirilishi butun bir ma'noning ildiziga bolta uradi.

Tilni buzib talqin qilish – shunchaki grammatik xato emas, bu milliy g'ururning, ajdodlar merosiga bo'lgan hurmatning sustligidir. Ba'zan suhbatdoshimizning nutqini tinglab, o'zimizni begona yurtda yurgandek his qilamiz. Bir jumlada uch-to'rt tilning «bo'laklari» aralashib ketgan: na o'zbekcha, na ruscha, na inglizcha. Bu – tilning boyishi emas, balki uning mohiyatan qashshoqlashuvidir.

So'zlarimiz orasiga begona unsurlarning asossiz kirib kelishi, go'yo ipak matoga qo'pol yamoq solishdek ko'rinadi. Endi o'zingiz o'ylang, bir necha ming yillik murakkab tarixiy jarayonlarni o'z ichiga olgan ona tilimizga bo'lgan bizning hurmatimiz shumi? Uning buyukligini bot-bot aytamiz-u, lekin nega uning buzilishini hammamiz ko'ra-bila turib beparvo bo'lavaramiz? Bu bora-bora odatiy holga aylanib, oddiy qabul qilinib qolishidan juda-juda qo'rqaman!..


**Xurshidbek RO'ZIYEV,**  
Ichki ishlar vaziri  
maslahatchisi,  
podpolkovnik.

## Nimtabassum

### MUHAYYO, SURAYYO, RA'NO, MUQADDAS...

- Allo, Dilor, qalaysan?
- Yaxshi, rahmat. Farog', o'zing tuzukmisan?
- Ha, yaxshi. Bugun Hilolni ko'rdingmi?
- Yo'q, boya Xurshi bilan ko'rishdik.
- Ertaga obed payti Maloh bilan Umish biznikiga mehmon bo'lib kelishadi. Sen ham kel, birga mazza qilib g'iybatlashamiz.
- Ertaga Sayyor bilan «O'rikzor»ga tushmoqchimiz. Bahorgi kiyim-kechaklar olamiz.
- Unda Xolining butigiga kiringlar. Arzonroq qilib beradi. Yaqinda Nigor ham butik ochgan.
- O'zing kirib ko'rdingmi?
- Ha, kecha Gulya, Zulya uchovimiz borgandik. Hamma kiyim-kechaklari kachestvenniy, turetskiy ekan.
- Mayli, Farog', gaplashamiz.
- Sog' bo'l, Dilor.
- Qizlaring Muhay bilan Surayni o'pib qo'y.

**Bobomurod TOSHEV.**



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

# AMIR TEMURNING HARBIY-SIYOSIY SALOHIYATI

**Jahon tarixidagi buyuk yuksalish – Temuriylar renessansi harbiy sohaga ham tegishli hisoblanadi va uning bunyodkori Sohibqiron Amir Temur jahon jang san'ati tarixida mohir sarkarda sifatida o'z o'rniga ega.**

Amir Temur zafarlari mukammal yoritilgan Sharafuddin Ali Yazdiy qalamiga mansub «Zafarnoma» asarining «Muqaddima» qismida Sohibqironning harbiy siyosati haqida shunday yozilgan: «... Chingizxon qaysi shahar va viloyatniki bosib olgan bo'lsa, na ul diyordan asar qoldi, na ulusdan xabar. Hazrat Sohibqironning baxtiyor zamonida fath etilgan joylar esa nizochilar va dushmanlarning ixtiyoridan butunlay chiqdi va ul Hazrat (Temur) dargohidagi vakillar qo'l ostiga o'tdi. [U joylar] ahvoli oldingisidan ancha yaxshiroq va obodroq, xalqi esa tinch-totuv va xursanddirlar...»

Amir Temurning harbiy strategiyasi natijasi o'laroq, saltanatning xalqaro diplomatik aloqalari kengayib, Buyuk Ipak yo'li orqali Yevropa, Sharq mamlakatlari o'rtasida savdo va madaniy aloqalar rivojida yagona iqtisodiy zamin yaratilishiga, fan va madaniyat taraqqiy etib, o'ziga xos «Temuriylar renessansi» yaratilishiga zamin bo'lib xizmat qildi.

Sohibqiron Turonzaminda hokimiyatga kelgach, yurt tinchligi, birligi va xavfsizligini ta'minlash zaruriyatidan dastlab sharqda Mo'g'uliston (1371–1389-yillar), g'arbda Oltin O'rda xonlari izmidan chiqmaydigan Xorazm (1371–1388-yillar) hukmdorlariga qarshi bir necha natijasiz elchiliklardan so'ng harbiy yurishlar amalga oshirishga to'g'ri keldi. Natijada o'lkaga sharqdan Mo'g'uliston, Xitoy va g'arbdan Xorazm orqali kirib keladigan xalqaro savdo yo'llari ochildi.

Amir Temur qo'shini yetti qo'ldan iborat bo'lib, bulardan uchta: markaz, barong'or, javong'or, ikkita manglay va ikkita qo'l himoyasi uchun qunbul qismlaridan tashkil topgan. Qo'shinni bunday joylashtirishning o'ziga xos tomoni shunda ediki, uning qanot qismlari markaziy qismga qaraganda ancha kuchli bo'lgan. Bundan ko'zlangan maqsad jangda asosiy taktika amaliyotlarini qo'llash hisoblangan.

**Harbiy sohaga tegishli masalalar – harbiy mansab va lavozimlar, ularning maoshlari, lashkarboshilar bilan askarlarning muomala odobi, qo'shin bo'linmalarining harbiy texnika va qurollari hamda jangovar atributlar ta'minoti, yosol tarkibi, soni va boshqalar «Tuzuklar»da qat'iy belgilab qo'yilgan.**

Qo'shin boshliqlari bo'lgan amirlar – mingboshi, yuzboshi,

o'nboshi, yana turli mansabdagi amaldorlar – tavochi, dorug'a, qutvol (qal'a boshlig'i), qorovulbegi, tunqotar, mirshab kabi bir-biriga bog'liq shakllangan tizim askarlarning toifasidan qat'i nazar, ularning harbiy iqtidor va qobiliyatini tarbiyalab, rivojlantirishga qaratilgan adolat mezonlariga amal qilgan xalqchil asosga qurilgan. «Sipohiylarni eng quyi darajadan oliy martabagacha ko'tarish tuzugi»ga ko'ra, o'nboshi, yuzboshi va mingboshilar ham xalqchil asosda saylangan. Ammo tumanbegi va amir ul-umarolar Amir Temurning ishonchli kishilari tomonidan shaxsan tayinlangan. Chunki bu qo'mondonlar qo'lida katta qo'shin bo'lgan va muhorabada hal qiluvchi rol o'ynagan.

**Amir Temurning strategik mahorati Turon saltanati taxtiga kelmasidan ilgari, ya'ni 1360–1370-yillardayoq mo'g'ullarga qarshi yurt ozodligi uchun harbiy faoliyatida namoyon bo'lgan edi. Uning maqsadga asosan jangsiz erishish yoki kuchlar nisbati noteng janglarda oz sonli qo'shin bilan talafotsiz yoki kam talafot bilan zafarlarga erishishi jahon harbiy san'at tarixidan o'rin olgan.**

Sohibqiron razvedka faoliyatiga davlat darajasida e'tibor qaratgan. Saltanatning ichki va tashqi xavfsizligi hamda zafarlarni ta'minlashda razvedka (maxfiy xizmat faoliyati, xabargir, ayg'oqchilik, josuslik)ning o'rni katta bo'lgan.

Harbiylardan tashkil topgan alohida «bulg'ovul» razvedka bo'linmasi va har bir bo'linmaning maxfiy paroli «yo'qiy»si bo'lgan. Xabarlarining to'g'riligi esa qattiq nazorat ostiga olingan.

Razvedkada turli kasb egalari xizmatidan unumli foydalanilgan. Janglardan oldin dushmanning yutuq va kamchiliklari asosida ishlab chiqilgan strategiya asosida tezkor operativ harakatlar olib borilgan.

**Maxfiy xizmat faoliyati natijasida dushmanning geografik o'rnini, (tog', dasht, suv zaxiralari), ichki va tashqi siyosati,**

**mudofaa tizimi kabi turli ma'lumotlari tahlili asosida harbiy strategiya ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu xizmat faoliyati saltanat qudratini ta'minlashga, ichki va tashqi siyosati, diplomatiya masalalari, geosiyosiy maydonda harakatlanishini belgilashga ham xizmat qilgan.**



Suratda: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Uchqun Tillayev Amir Temur ro'lda.

Amir Temur qudratli qo'shinni boshqarishda nafaqat harbiy ilmga, balki ma'naviyatga ham tayanган. Ma'naviy yetuklik askarlarni vatanparvarlikka, qahramonlikka, jasurlikka yetaklashini yaxshi tushungan Sohibqiron askarlarning jismoniy va harbiy tayyorgarligi bilan birga, ma'naviy dunyoqarashiga ham katta e'tibor qaratgan.

Harbiylarning muloqot madaniyati, lashkarning temir intizomi «Tuzuklar»da, xususan, «Navkarning begiga va bekning navkariga muomala qilish tuzugi»da navkarlarning beklarga, beklarning beklarbegiga bo'ysunish odobi qat'iy belgilab berilgan. Navkarlar, otliq suvoriylar o'z sardoriga muloqotda «amirim», «sardorim» deya hurmat bildirishgan.

**Vaqtivaqti bilan o'tkazib turilgan lashkar ko'rikleri qo'shinning harbiy tayyorgarligi, jangovar shayligi, harbiy**

**qudratini tekshirish, rag'batlantirish, mukofotlash masalalaridan tashqari, lashkarning vatanparvarlik ruhini ko'tarishda ahamiyati katta bo'lgan. Ushbu ko'riklarda bo'linmalar o'zlariga tegishli musiqalar jo'rligida bayroq va tug'lari, maxsus kiyimlari, mukammal qurol-yaroqlari, intizomi, muloqot madaniyatini namoyish etishgan va bu albat-ta qo'shinning yanada qudratli bo'lishiga xizmat qilgan omillardan bo'lgan.**

Harbiy strategiyaning negizi bo'lgan Buyuk Ipak yo'lida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan barcha uzoq yillik mashhur tarixiy yurishlar, jumladan, Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga qarshi muhorabalar natijasida Buyuk Ipak yo'lining shimoliy yo'nalishi, Hindiston yurishi orqali janubiy yo'nalishi, Shom o'lkalariga yurish esa g'arbiy yo'nalish, Rum yurishi markaziy yo'nalishda saltanatning diplomatik va savdo aloqalari rivoji uchun xizmat qildi. Shuningdek, Buyuk Ipak yo'li orqali Yevropa, Sharq mamlakatlari o'rtasida ilmiy-madaniy aloqalar rivoji Yevroosiyo hududida yagona iqtisodiy zamin yaratilishiga, fan va madaniyat taraqqiy etishi, o'ziga xos «Temuriylar renessansi»ning yaratilishiga zamin bo'ldi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, «Tuzuklar»da harbiy boshqaruv tizimi, harbiylarning muloqot madaniyati, muntazam qo'shinning jangovar salohiyati va ta'minoti, strategiya va taktika uslublari, razvedka, temir intizom va jazo masalalari, harbiy ko'riklar kabi barcha masalalar qat'iy belgilab berilgan. Bir so'z bilan aytganda, Sohibqiron Amir Temur nafaqat muzaffar sarkarda sifatida yurtni himoya qildi, balki harbiy sohada amalga oshirgan islohotlari jahon jang san'ati, harbiy an'ana va qadriyatlar rivojiga ham munosib hissa bo'lib qo'shildi.

**Ozoda RAHMATULLAYEVA, tarix fanlari nomzodi, dotsent.**



Qoraqalpoq tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.

## Xavfsiz va sog'lom yurt

## SAMARALI USUL

Qashqadaryo viloyatida tadbir boshlangandan buyon amalga oshirilgan keng qamrovli profilaktik ishlar tufayli 165 jinoyatning 103 tasi «issiq izidan» ochildi. Jinoyat sodir etgani uchun tergov idoralaridan yashirinib yurgan qidiruvdagi 30 nafar shaxs ushlendi. Bundan tashqari, giyohvandlik vositasini saqlash, o'tkazish va sotish bilan bog'liq 45 ta holat fosh etildi. Jinoyatchilardan qariyb 6 kilogramm miqdordagi narkotik moddalar olib qo'yildi.

Qarshi shahrida o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro J.J. boshqaruvidagi avtoullov to'xtatib, tekshirildi. Tekshiruv davomida mashina yukxonasida og'irligi 1 kilogramm 111,5 gramm marixuana giyohvandlik vositalari borligi aniqlanib, tegishli tartibda hujjatlashtirib olindi. Hozir mazkur holat yuzasidan tergovga qadar surishtiruv harakatlari olib borilyapti.

Shu bilan bir qatorda, mahalla ahli, oqsoqollar va ko'chaboshilar hamkorligida «Jamoatchilik nazorati» postlari faoliyati tubdan ko'rib chiqilib, zarurat bo'lganda ular ishi qayta tashkil etildi. Har bir fuqaro o'z mahallasining osoyishtaligi uchun kurashi-shi, huquqbuzarlikning oldini

olishda ichki ishlar organlari xodimlariga ko'maklashishi sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning payini qirqishda qo'l kelishi fuqarolarga uqtilir-moqda.

Notinch oilalar, muqaddam sudlanganlar, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar, shuningdek, xorijga ishlash uchun uzoq muddatga ketib, qaytib kelgan fuqarolar ham e'tibordan chetda qolgan yo'q. Ular bilan muntazam tarzda profilaktik suhbatlar tashkil etilmoqda. Bu borada joylarda mahalla faollari, huquq-tartibot idoralari xodimlaridan iborat targ'ibot guruhlarini ish yuritmoqda.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



## Ўқишни тавсия этаман

## КАНОРАСИЗ БАҲР

**А**хмад Муҳаммад Турсуннинг «Соҳилсиз денгиз» асари бутун дунё халқининг эҳтиромни, муҳаббати ва ихлосини қозона олган буюк бир шахс ҳақидадир. Жаҳонда унинг номи ва асарлари кириб борманган бирорта муслмон хонадонини топиш амри маҳол. Жаҳоннинг қаерига борманг, унинг исмини тилга олишингиз билан одамлар чехраларида ҳайрат, мамнуният ила юзлари нурли жилвана бошлайди. Албатта, у Имом Бухорийдир.

Асар Бухородан сафарга чиққан Исмоилнинг Бойкент шаҳрига йўл олишидан бошланади. Боғбон Ориф отанинг уйда меҳмон бўлиб, у ерда улғаяётган Фотимага кўнгили кўяди. Чунки ўта зийраклиги туфайли ундан туғилажак фарзандлар зукко, хушхулқ ва солиҳ бўлишини ўйлайди.

Исмоил ота-онасининг саъй-ҳаракатлари билан ҳадис тўплашдек неъматга муяссар бўлди. Мана, иккинчи фарзанди ҳам ўғил бўлди. Ўзи тўплаган ҳадис илмини давом эттиришини ният қилиб исмини Муҳаммад қўйди. Аёлига васият қилиб, чақалоқни бирор марта таҳоратсиз эмизмасликни, Куръони Каримни тиловат қилиб, доим ҳадис мутолаа қилишини қаттиқ тайинлади.

Эридан ёдгор қолган фарзандларини еру кўкка ишонмай парваршлаётган Фотимани яна бир синнов кутиб турарди. Энди атак-чечак қилаётган дилбанди йиқилди-ю, ерда ётган шохча унинг кўзларига зарар етказди. Оқибатда икки кўзи кўрмай қолди. Умидини узмаган онаизор Яратганга илтижо қилди. Дуолари бесамар кетмай, Муҳаммад яна кўра бошлади.

Муҳаммад олти ёшга тўлганда онаси уни маҳалладаги вазир Ахмад

Qaynona bilan kelin o'r-tasidagi kelish-movchilik «Sohil» mahallasidagi barcha sharoit-lar yetarli, to'-kin-sochin hayot kechirib kelgan oilaning totuvli-giga raxna soldi. Ona yolg'iz o'g'-lini yosh kelini-dan qizg'anib, uning har bir ha-rakatidan xatolik qidirib kelgan.



## MUHIM VAZIFA

Boyovut tumani IIB HPB XQMB katta inspektori, leytenant Barno Karimova nizoni bartaraf etish uchun psixolog va mahallaning bir necha kayvoni ayollarini ham taklif qildi. Qariyb uch soatlik profilaktik suhbat natijasida «muzlar eridi», janjal pasaydi. Ammo Barno shu bilan cheklanib qolmadi, ikki oy davomida muntazam ravishda xonadonda bo'lib, oiladagi munosabatlarni sog'lomlashtirishga ko'maklashdi. Shu tariqa uzoq vaqtdan beri davom etgan notinchlikka barham berildi.

«Bekat» mahallasidagi holat esa yanada murakkab bo'lib chiqdi. Qirq yoshdagi erkak turmush o'rtog'ini tahqirlagani haqida xabar keldi. Barno Karimova hududiy pro-

filaktika inspektori bilan birga xonadonga bordi. Ma'lum bo'lishicha, farzandlar allaqachon voyaga yetgan edi. Er-xotin o'rtasida uzoq yillardan buyon doimiy ravishda nizolar sodir bo'lib turgan. Bu safar er o'zini nazorat qilolmay, idish-tovoqlarni sindirgan, hatto xotinini uydan haydab chiqarmoqchi bo'lgan. Zudlik bilan ayolga himoya orderi berildi, erkakka nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik bayonnomasi tuzildi. Har ikkisi bilan profilaktik suhbat o'tkazildi. Shuningdek, oila notinch oilalar ro'yaxatiga kiritildi.


Yosh leytenant oilaviy nizolarni bartaraf etishdan tashqari, tez-tez ta'lim muassasalarida o'quvchi qizlar bilan profilaktik tadbirlar tashkil qiladi. U sport

musobaqalari va ma'rifiy tadbirlar orqali yosh avlodni tarbiyalashga ham alohida e'tibor qaratadi. Lavhamiz qahramonining fikricha, jamiyatda tinchlik-osoyishtalik nafaqat qonun yordamida, balki har bir insonning ma'naviy va axloqiy kamoloti orqali ham ta'minlanadi.

Barno Karimova har bir profilaktik tadbir, har bir oilaviy muhokama orqali o'zining zimmasidagi mas'uliyatli, muhim vazifani ado etadi. Bu vazifa jamiyatda tinchlik-osoyishtalik, oilada mehr-oqibat va xotin-qizlarning qalbida hayotidan mamnunlikni saqlashdan iborat.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



Хуллас, бу китобни ўқисангиз, ҳеч ҳам афсус қилмайсиз. Аксинча, Имом Бухорийнинг ҳаёт йўли ва бундай шарафга тинимсиз меҳнат орқали эришганига гувоҳ бўласиз.

**Гўзал ЖАФАРОВА,**  
ўз мухбиримиз.

Otaliqqa olingan maktablarda

# XAYRLI ISHNING MEVASI SHIRIN

**Termiz shahridagi IIVga biriktirilgan 7-sonli ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi bugun intizom, xavfsizlik va sifatli ta'lim uyg'unlashgan bilim maskanlaridan biriga aylandi. Viloyat IIBda tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan maktabni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi. Qisqa vaqt ichida amalga oshirilgan ishlar esa samarali natija ko'rsatdi.**

Avvalo, maktab hududini obo-donlashtirish ishlariga e'tibor qaratildi. Hovli va maktab atrofi to'liq tartibga keltirilib, yashil hudud kengaytirildi. 800 tup mevali hamda manzarali daraxtlar, 1200 dan ortiq gul ko'chatlari ekildi.

Infratuzilmani yaxshilash borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Maktab hududiga 120 tonna shag'al va qum yotqizilib, yer maydonlari tekislandi. Ayniqsa, maktab oldidan o'tuvchi katta yo'lga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni bartaraf etish maqsadida piyodalar yo'lakhasi chizilib, zamonaviy svetofor va sun'iy qavariq to'siq o'rnatildi. Qolaversa, sport zali joriy ta'mirlanib, 20 ta kurash gilami va 22 turdagi boshqa sport anjomlari bilan ta'minlandi. Taekvondo, qo'l jangi, voleybol va tennis kabi sport turlari bo'yicha to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilib, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun keng imkoniyat yaratildi.

**Maktabning 1974 va 1978-yillarda qurilgan binolari to'liq ta'mirdan chiqarildi va zamonaviy ko'rinishga keltirildi. Yangilangan binolar joriy o'quv yili arafasida foydalanishga topshirildi.**

Maktab hududiga zamonaviy videokuzatuv tizimlari – yuzdan tanib olish funksiyasiga ega bo'lgan 360 gradusli hamda avtomashina raqamlarini aniqlovchi kameralar o'rnatilgani ham e'tiborlidir. Negaki, bu nafaqat tartib-intizomni ta'minlash, balki favqulodda holatlarning oldini olish imkonini kengaytiradi. Yaqin kelajakda sinfxonalarni ham to'liq ovozli kameralar bilan jihozlash va barcha tizimlarni yagona nazorat markaziga integratsiya qilish rejalashtirilgan.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida «Yo'l harakati xavfsizligi xonasi» tashkil etildi. Zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan ushbu xonaning yo'l harakati qoidalarini amaliy o'rganishdagi ahamiyati katta bo'layotir.

Xullas, viloyat IIB tashabbusi bilan ta'lim muassasasida amalga oshirilgan ishlar ushbu maskanda zamonaviy, xavfsiz va qulay muhit yaratirishga xizmat qilmoqda. Zero, ta'limga kiritilgan sarmoya kelajakka qo'yilgan mustahkam poydevordir.

**Feruz RAHMUNQULOVA, o'z muxbirimiz.**

Surxondaryo viloyati.



## MATONATLI YOSHLAR MASKANI

**Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 77-sonli «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatida 338 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ularga yuqori malakali 68 nafar pedagog ta'lim beradi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimiga qarashli mazkur bilim maskanida pedagog murabbiylar hamda o'quvchi yoshlar uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Zamonaviy o'quv xonalari, sport maydonchalari, yotoqxonalar va ovqatlanish xonalari ular xizmatida. Bundan oqilona foydalangan holda,

o'quvchi yoshlar nafaqat ta'lim, balki san'at va sport sohalarida ham katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ular fan olimpiadalarida, musiqa festivallari hamda tuman, shahar, respublika va hatto xalqaro miqyosdagi sport musobaqalarida bilim va mahoratlarini namoyish etib, g'olib bo'lishmoqda.

Jumladan, o'tgan yili 3-dekabr – Xalqaro nogironlarni himoya qilish kuni munosabati bilan Armanistonning Yerevan shahrida o'tkazilgan

«Sideto side» musiqa festivalida Rossiya, Qozog'iston, Gruziya, Moldova, O'zbekiston va Qirg'iz Respublikasidan imkoniyati cheklangan o'quvchi yoshlar qatnashdi. Maktab-internatning 10-sinf o'quvchisi Zuhra Shavkatjonova mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qildi. U vokal yo'nalishidagi qo'shig'i bilan ishtirok etib, diplom bilan taqdirlandi.

2025-yilning 7-14-dekabr kunlari Dubayda bo'lib o'tgan V Yoshlar Parasiyo o'yinlarida

ham faxrli o'rinlarning egallangani quvonarli. Aniqrog'i, mazkur nufuzli xalqaro musobaqada maktab-internatning 8-sinf o'quvchisi Dilnura Mamatqulova parayengil atletika sport turi bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Mahoratli sportchi qiz 1500 metrga yugurish bellashuvida birinchi, 400 metrga yugurish va uzunlikka sakrash bo'yicha ikkinchi, 200 metrga yugurishda esa uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Dilnura kabi yosh sportchilarning muvaffaqiyatli chiqishlari tufayli O'zbekiston terma jamoasi musobaqada katta natijalarga erishdi.

**Feruz YO'LDOSHOV, o'z muxbirimiz.**



## Международные связи

## УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЕРСТВА

**МВД Узбекистана реализует задачи по совершенствованию следственной деятельности, в том числе путем развития международного сотрудничества.**

Двусторонний диалог между МВД Республики Узбекистан и Следственным комитетом Республики Беларусь успешно развивается на базе Меморандума о взаимопонимании, подписанного 11 ноября 2025 года. К настоящему времени уже реализован ряд проектов. Логическим продолжением партнерства стал визит делегации в Центральный аппарат министерства, определивший векторы укрепления взаимодействия.

Встреча прошла под председательством заместителя министра внутренних дел – начальника Следственного департамента полковника Рамазона Ашропова и заместителя председателя Следственного комитета Республики Беларусь Анатолия Васильева.

Обсуждены перспективы расширения межведом-

ственных связей, при этом особое внимание уделено вопросам обмена опытом. В числе ключевых направлений намечены организация совместных учебных сборов и научно-практических конференций, ориентированных на повышение квалификации следователей. Акцент был сделан также на методах противодействия современным угрозам, в частности на выявлении и расследовании кибермошенничества. Стороны выразили готовность вывести двустороннее партнерство на качественно новый уровень.

\* \* \*

В рамках визита делегация Следственного комитета Республики Беларусь посетила Академию МВД. Гости ознакомились с инфраструктурой вуза, включая Информационно-ресурсный центр и Центр контроля и мониторинга качества образования, высоко оценив реформы в сфере подготовки кадров.

В ходе встречи с руководством Академии приоритетное значение придавалось реализации совместных образовательных программ, организации курсов повышения квалификации для профессорско-преподавательского состава и курсантов.

Соб. корр.



## Духовность

## ТЕАТР – ШКОЛА ВОСПИТАНИЯ



**Стала доброй традицией организация посещений театров для личного состава ОВД и членов их семей.**

В рамках духовно-просветительской работы и празднования Международного дня театра сотрудники подразделений УВД Сурхандарьинской области и их близкие посетили областной театр музыкальной драмы. Творческий коллектив представил спектакль, посвященный жизни и наследию великого мыслителя Имама Термизи. Постановка нашла живой отклик у зрителей благодаря глубине и мощному воспитательному послы, раскрыла значение таких ценностей, как стремление к знаниям, преданность благородным идеям.

Соб. корр.

Сурхандарьинская область.

## В службах и подразделениях



## В РЕЖИМЕ 24/7

В рамках программы цифровизации ОВД подразделение оснащено новейшими системами мониторинга.

– Дежурная часть – высокотехнологичный информационный хаб. Здесь работа организуется по принципу максимальной оперативности, – говорит заместитель начальника службы по вопросам цифровых технологий капитан Огабек Тожибоев. – При поступлении сигнала диспетчеры направляют группу реагирования на место происшествия. Среднее время прибытия группы в любую точку района не превышает 5 минут. Через бодикамеры на экраны транслируется изображение, что позволяет оценивать обстановку и

координировать действия сотрудников в режиме реального времени. Системы сигнализации и датчики на объектах охраны интегрированы в общую сеть с автоматической фиксацией, что исключает влияние «человеческого фактора».

## ОТТАЧИВАЯ НАВЫКИ

Особое внимание в подразделении уделяется профессиональной подготовке. В интерактивном тире сотрудники доводят до автоматизма навыки владения табельным оружием, используя компьютерные симуляторы. Десятки сценариев – от обороны объекта до задержания – тренируют не только меткость, но и хладнокровие: умение принимать верные решения в

## АЛГОРИТМ ЗАЩИТЫ

**Сегодня Сергелийский район Ташкента – это территория стремительного развития. Вместе с ростом жилых массивов и инфраструктуры совершенствуется и система безопасности. Будни службы охраны при УКД ОВД района – наглядный пример сочетания высоких технологий, профессиональной выучки и тщательного кадрового отбора.**



стрессовых условиях. Эти компетенции закрепляются на полигоне в обстановке, предельно приближенной к реальности.

Именно такая глубокая подготовка позволяет сотрудникам действовать эффективно и в повседневных ситуациях. В этом смысле показателем недавний случай в магазине Inbazar.

...Когда гражданин А. Н. попытался тайно вынести товар на сумму свыше 1,3 млн сумов, система безопасности

сработала как часы. После того, как активировалась тревожная кнопка, сигнал мгновенно ушел на пульт. Прибывшая в считанные минуты группа реагирования задержала злоумышленника, к нему приняты законные меры.

Инцидент доказал: настоящая безопасность – это не просто наличие камер.

## КАДРЫ РЕШАЮТ ВСЕ

Эффективность системы измеряется профессио-

нализмом сотрудников. О принципах формирования личного состава рассказал заместитель начальника по кадрам и воспитательной работе капитан Бахром Норов:

– Сегодня нам недостаточно просто физически крепкого кандидата. Сотрудник должен обладать высоким интеллектом, психологической устойчивостью, умением работать со сложной электроникой. Делаем ставку на молодежь.

Будни Сергелийского подразделения охраны – это непрерывная работа, зачастую невидимая для горожанина. Однако жители могут быть спокойны: сохранность их имущества и личная безопасность обеспечивают специалисты, для которых качественное выполнение работы – ежедневный стандарт.

Радик ТУМПАРОВ,  
соб. корр.

Фото Икром ХАСАНОВА.



## «RAHMAT SIZGA, INSPEKTOR!»

Toshkent tumani IIB YHXB YPX kichik inspektori, safdor Salimjon Siddiqovning ish kuni erta tongdan, yo'llardagi tirbandliklarni bartaraf etish va piyodalar, ayniqsa, maktab o'quvchilarining yo'ldan xavfsiz o'tishini nazorat qilishdan boshlanadi. U faqat qat'iy tartib-intizom o'rnatishda emas, balki yo'lda yordamga muhtoj bo'lib qolgan haydovchilarga ko'mak berishda ham o'rnatib berishda kelyapti. Vaziyatni to'g'ri baholay olish qobiliyati bilan ko'plab nizoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishiga xizmat qilmoqda.



– YPX inspektori bo'lish huquqiy bilimdan tashqari, jismoniy chidamlilik va psixologik tayyorgarlikni ham talab qiladi. Otam, marhum katta serjant G'ofur O'lmasov ham ichki ishlar organlari xodimi edi. U tizimning turli sohaviy xizmatlarida faoliyat yuritgan. Men ham otamning davomchisi bo'lganimdan g'ururlanaman, – deydi lavhamiz qahramoni.

Salimjon 2017-yildan ichki ishlar organlari safida. Toshkent metropolitenida ham jamoat tartibini saqlagan. Biroz muddat Toshkent tumani IIBda haydovchi bo'lgan. Uning fuqarolar bilan muloqotga kirishimliliigi aynan metropo-

litendagi minglab insonlar bilan har xil vaziyat va holatlarda shakllangan bo'lsa, ajab emas.

Safdor Salimjon Siddiqov tezlikni oshirish, svetoorning taqiqlovchi chirog'iga rioya qilmaslik yoki mast holda mashina boshqarish kabi holatlar bilan bog'liq, shuningdek, haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmay turib avtomobilni boshqargan maktab o'quvchilari bilan bog'liq – jami 200 dan ortiq turli qo'pol qoidabuzarliklarni aniqlagan.

**Abror POYONOV,**  
katta mutaxassis-muxbir,  
katta serjant.

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

12 yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelayotgan lavhamiz qahramoni faoliyatini patrul-post xizmatida boshlagan. Bir muddat IIV Farg'ona akademik litseyida ishlab, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga o'z hissasini qo'shgan jonsarak yigit bugungi kunda yo'l-patrul xizmatida o'z vazifasini sidqidildan ado etib kelmoqda.

Inspektor Mamajonovning xizmat joyi oddiy chorraha emas. Bu yerdan har kuni yuzlab bolalar maktabga qatnaydi. Shu bois uning uchun eng muhim vazifa – bolalar xavfsizligini ta'minlash. Har bir bolaning yo'lni bemalol kesib o'tishi, uyiga, ota-onasi bag'riga sog'-omon qaytishi uning doimiy e'tibor markazida.

U faqat tartib saqlash bilan cheklanib qolmaydi. Vaqt topib, bolalar bilan suhbatlashishni, ularga yo'l harakati qoidalarini sodda tilda tushuntirishni yaxshi ko'radi. Shu bois bolalar ham uni o'zlariga yaqin olishadi.

Odatdagi kunlarning birida maktabga shoshilayotgan bolalardan biri doimgidek inspektorga yaqinlashdi. U har safargidek qo'lni ko'ksiga qo'yib, samimiy salom berdi.

– Assalomu alaykum! – dedi u ko'zlarida qiziqish porlab. – Men ham katta bo'lsam, sizga o'xshab yo'l-patrul xiz-

mati xodimi bo'lmoqchiman. Buning uchun nima qilishim kerak?

Inspektorning yuzida iliq tabassum paydo bo'ldi. U bolaning yelkasiga yengil qoqib, muloyim ovozda javob berdi:

– Avvalo, yaxshi o'qishing kerak, ukajon. Bilimli bo'lsang, har qanday orzuingga yetishasan. Sport bilan shug'ullan, sog'lom va baquvat bo'l. Eng muhimi, tartibli va intizomli bo'lishni o'rgan.

Bola bu gaplarni diqqat bilan tinglar, go'yo har bir so'zni qalbiga joylar edi. Suhbat yakunida inspektor unga harbiylarga xos tarzda «chest» berdi. Kutilmagan bu e'tibordan bolaning ko'zlari charaqlab ketdi. U ham harbiychasiga qo'lni chekkasiga qo'ydi:

– Rahmat sizga, komandir!

Bu oddiygina ko'ringan manzara ortida katta ma'no mujassam. Chunki har bir bolaning qalbida ezgulik urug'ini ekish, uni to'g'ri yo'lga boshlash – eng ulug' vazifalardan biri.

Inspektor Hamidullo Mamajonov kabi fidoyi xodimlar nafaqat yo'llarda harakat xavfsizligini saqlaydi, balki kelajak egalari bo'lgan yoshlar qalbida orzular kurtak yozishiga sabab bo'ladi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Farg'ona viloyati.

## FURSAT ESHIGI

**Hayot ba'zan insonni turli sinovlarga soladi. Kimdir bu sinovlardan yorug' yuz bilan o'tadi, yana kimdir esa adashib, noto'g'ri yo'lga kirib qoladi. Eng muhimi insonga ikkinchi imkoniyat berilganda, undan qanday foydalanishidir.**

Jalil (ismi o'zgartirildi) ham bir vaqtlar yo'ldan adashgan edi. Yoshlik beboshligi, tajribasizlik va nobop muhit ta'siri uni jinoyat sari yetakladi. Bu xatosi hayotini butunlay izdan chiqarib yuborishi mumkin edi. Ammo sud uning yolg'iz o'g'il ekanligini, xatosini anglab yetganini, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lganini hisobga olib, axloq tuzatish ishlari jazosi tayinladi.

Lekin faqat xatoni anglashning o'zi kam. Insonga bunday pallada qo'llab-quvvatlash, ishonch, jo'yali maslahat va yo'l-yo'riq ham kerak bo'ladi. Konimex tumani IIB Probat-siya guruhi katta inspektori, mayor Nuriddin Bahromovning sa'y-harakatlari bilan Jalil avtomobil ta'mirlash

ustaxonasiga ishga joylashtirildi. U bugun oilasi bag'rida, halol mehnat qilib, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilmoqda.

Ayni paytda mayor Nuriddin Bahromov nazoratidagi mahkumlar bilan muntazam profilaktik targ'ibotlar, tushuntirish ishlari olib bormoqda. Vaqtincha ishsizlarini mehnatga jalb qilish, kasb-hunarga yo'naltirish choralarini ko'ryapti.

– Lekin, ming afsuski, ular orasida berilgan imkoniyatning qadriga yetmayotganlar ham bor, – deydi lavhamiz qahramoni.

Yaqinda jinoyat ishlari bo'yicha Konimex tuman sudiga kiritilgan taqdimnomalarga ko'ra, probatsiya nazoratidagi bir guruh shaxslarning



ishi qayta ko'rib chiqildi. Ulardan jazoni o'tash davrida mehnatga halol munosabatda bo'lib, o'z qilmishidan afsus chekib, qat'iy tuzalish yo'lga o'tgan 3 nafari muddatidan ilgari shartli ozod qilindi. Shuningdek, ja-


zoni o'tashdan bo'yin tovlab yurgan 1 nafar mahkumning jazosi og'irroq turdagi jazo bilan almashtirildi.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Navoiy viloyati.

## Migratsiya xizmati

## «SIZ NIMA MASALADA KELDINGIZ?»

Yangihayot tumani IIOFMB Migratsiya va personallashtirish bo'limiga borganimizda ertalab soat 9 edi. Bo'lim boshlig'i, kapitan Dilorom Xudoyberganova murojaat bilan kelgan fuqarolar bilan gaplashayotgan ekan. Har bir murojaatchi so'zini tinglagach, «Siz, falon raqamli xonaga kirasiz, siz, ikkinchi qavatdagi Murod ismli xodimimizga uchrashasiz. Xonasi – zinaning to'g'risida, siz, opa, menga kirasiz, ikkinchi qavatga chiqib turing, hozir chiqaman», – dedi. Murojaatchilar ko'rsatilgan xonalarga tarqala boshlashdi.



Uzoqdan salobatli bo'lib ko'rinib turgan ushbu yangi binoda joylashgan idorada ish tartibi yangicha, munosabat yangicha, ishlarning bitishi ham yangicha bo'lib, yangicha hayot nafasi shundoq sezilib turibdi. Bino atrofi va ichkarisining yarqirab turishi kishiga xushkayfiyat bag'ishlaydi. Shovqin-suron, baqir-chaqir yo'q. Ha, ayol bor joyda sa-

ranjom-sarishtalik, tozalik va ozodalik mujassam bo'ladi, degan gap bejiz aytilmagan.

Fuqaro Zafar Fayzulloev ehtiyotsizligi oqibatida pasportini yo'qotib qo'ygan ekan. Yangi ID-karta olish uchun kelibdi. Safdor Bekzod Anvarov unga ID-kartasini olish tartibini tushuntirdi. Yo'qotgani uchun jarima ham to'lashi lozimligini aytganida,

«Ayb o'zimizda, uka, jarimani to'lashdan qochmaymiz», – dedi kulimsirab.

– Siz nima masalada kelgandingiz, deya, yo'lakda turgan fuqarolardan biriga murojaat qildim.

– «Forma – 17» degan ma'lumotnoma kerak edi. Buncha odamni ko'rib ma'lumotnomani tushlik vaqtigacha olsam ham xursand bo'lardim, deb o'ylagandim. Xoh ishonib, xoh ishonmang 15 daqiqada tayyorlab berishdi. Ishga kechroq kelaman deb, rahbarimdan javob so'rab kelgandim. Ancha vaqtim tejaldi. Xodimlarga rahmat, – deydi minnatdor ohangda.

Bizga taqdim etgan o'tgan yili amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotga ko'z yugurtiramiz. Bir yilda 17 ming nafardan ziyod kishi doimiy ro'yxatga olingan. 11300 nafar fuqaro vaqtin-



chalik turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, 20 ming nafardan ziyod fuqaroga Identifikatsiya – ID-kartalari rasmiylashtirib berilgan. Shulardan 16 yoshga to'lish munosabati bilan 3329 nafar o'smiringa yangi ID-kartasi rasmiylashtirilgan bo'lsa, 13508 kishiga esa biometrik pasporti o'rniga berilgan. Shuningdek, amal qilish muddati o'tganligi uchun 3578 nafar fuqaro ham yangi ID-kartasiga ega bo'lishgan.

Bularga O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga vaqtinchalik va doimiy chiqish uchun xorijga chiqish

biometrik pasportini rasmiylashtirish bo'yicha qilgan 9977 ta murojaatini, 4621 nafar chet el fuqarosining vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazilganini, 2500 nafardan ziyod MDH davlatlari fuqarolari hujjatlari bilan ishlanganini ham qo'shadigan bo'lsak, gar-chand ish jarayoni zamonaviy texnik uskunalar bilan avtomatlashtirilgan bo'lsada, bu raqamlarning o'zi xodimlarning tinimsiz ishlaganiga yaqqol misol bo'la oladi.

**Shuhrat RO'ZIYEV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

## Insonparvarlik

## TO'G'RI YASHASH IMKONIYATI

2007-yilda Buvayda tumanida tug'ilgan Abduqodir Abdusamadov yosh bo'lganligi sababli bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolgan edi. Sud uning qilmishlariga yarasha jazo tayinlagach, umrining muayyan qismini panjara ortida o'tkazdi. Shu vaqt davomida qalbidan qanday og'riqlar kechganini o'zidan boshqa hech kim bilmaydi.

Navro'z bayrami arafasida u Prezidentimizning tegishli farmoniga asosan afv etilib, ozodlikka chiqarildi.

– Qilgan xatolarimni tushunib yetdim, – deydi u ko'zlarida yosh bilan. – Endi halol mehnat qilib, oilam va yurtim ravnaqi uchun xizmat qilaman. Oliyohdagi o'qishimni davom ettirib, malakali shifokor bo'lib yetishaman. Bizga shunday imkoniyat yaratib bergan yurtboshimizga cheksiz rahmatlar aytaman.

Farg'ona shahridagi 10-sonli tergov hibsxonasida jazo muddatini o'tayotgan 3 nafar fuqaro afv etilib, oilalari bag'riga qaytarildi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan marosimda so'zga chiqqan hibsxona boshlig'i, podpolkovnik Farhodjon Sidiqjonov yurtimizda olib borilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati, inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan e'tibor, tinch va farovon hayot qadri haqida so'z yuritdi. Shuningdek, afv etilgan fuqarolarga bildirilgan ishonchni oqlash, halol mehnat qilish va jamiyatda munosib o'rin topish muhimligini alohida ta'kidladi.

– O'g'lim Abduqodirga berilgan bu imkoniyat – biz uchun katta ne'mat,



– deydi Abrorjon Abdullayev. – Endi farzandimni nazoratsiz qoldirmayman. Uning to'g'ri yo'lda yurishi uchun ota sifatida yanada mas'uliyatliroq bo'lishim kerakligini tushunib yetdim. Farzandim qilgan xatolarni kechirgani uchun Prezidentimizga rahmat aytaman.

1997-yilda Qo'shtepa tumanida tug'ilgan Yursunali Dehqonov ham

jinoyatga qo'l urganligi sababli o'tgan yil aprel oyida 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan edi. Bag'rikenglik va kechirimlilik tamoyili asosida uning qilmishlari ham afv etilib, halol yashash imkoniyati berildi.

– Qonunni mensimaslik qanday oqibatlarga olib kelishini o'z boshimdan o'tkazdim, – deydi u. – Eng og'iri – oila a'zolarim ham iztirob chekishdi.

Endi esa butunlay boshqacha yashamoqchiman. Menga bildirilgan ishonchni, albatta, oqlab, yurtimizga, ota-onamga foydali inson bo'lishga harakat qilaman.

Hozirda ushbu fuqarolarning xonadonida xursandchilik kunlari boshlandi. Eng e'tiborlisi, ular afv etilgach, o'z holiga tashlab qo'yilmaydi. Mahalla yettilligi tomonidan ijtimoiy-huquqiy va tibbiy yordam ko'rsatish boshlandi. Ular takroran jinoyatga qo'l urmasligi, to'g'ri va halol yashashi uchun har tomonlama ko'mak beriladi.

Darhaqiqat, insonparvarlik siyosati nafaqat huquqiy, balki chuqur ma'naviy ahamiyatga ham ega. U xalqimizga xos bo'lgan kechirimlilik, bag'rikenglik va rahmdillik kabi fazilatlarining amaldagi ifodasidir. Jinoyat qilgan, ammo qilmishidan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga o'tgan insonlarga ikkinchi imkoniyat berish jamiyat barqarorligi va inson qadri ta'minlashda muhim omildir.

Bugun afv etilgan fuqarolarning ko'zlaridagi quvonch va umid – yurtimizda amalga oshirilayotgan insonparvar siyosatning eng katta samarasidir. Ular uchun bu yangi hayot, yangi orzular va yangi imkoniyatlar eshigidir.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Chilonzor tajribasi

# OSUDALIK SARI YANGI QADAM

## yoxud uch smenali xizmatning afzalliklari

Toshkent millionlab insonlar taqdiri tutashgan, kecha-yu kunduz hayot qaynagan megapolis. Bunday yirik shaharda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash ichki ishlar organlari xodimlaridan alohida fidoyilikni talab etadi. Ayniqsa, poytaxtning aholi gavjum nuqtalardan biri bo'lgan Chilonzor tumanida xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari mavjud.

– Sohadagi so'nggi yangilanishlardan biri – uch smenali tizimning yo'lga qo'yilishidir, – deydi tuman IIOFMB JTSB PPX 1-otryad komandirining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, kapitan Oybek Salayev. – Ushbu islohotlar zamirida bevosita davlatimiz rahbarining tashabbuslari yotibdi. Xususan, Prezidentimizning tegishli qarori hamda 2026-yilning yanvar oyida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ilgari surilgan g'oya asosida soha xodimlari uchun yangi vazifalarni belgilab berdi.

Ilgari xizmat oldi yo'riqnomalari paytida muayyan vaqt davomida hududlar nazoratsiz qolib ketardi. Hozirgi uch smenali tizim esa bu bo'shliqni to'ldirdi. Endilikda smenalar bir-birini uzviy almashtiradi va hududda patrullik xizmati bir daqiqa bo'lsa-da to'xtamaydi. Bu tizim kunning turli vaqtlarida kuchlarni to'g'ri taqsimlash imkonini bermoqda.

Kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan nuqtalar (bozorlar, ko'ngilochar maskanlar va aholi gavjum joylar)da shaxsiy tarkibni taqsimlashda kunlik tezkor tahlillarga tayanilgan holda, yangicha yondashuv joriy etildi. Kunduzgi vaqt (08:00–16:00) da shaxsiy tarkibning 30 foizi jalb etilib, hududdagi barqarorlik va jamoat tartibi nazorat qilinadi. Jinoiyat va huquqbuzarliklar ehtimoli yuqori bo'lgan vaqt oralig'i (16:00–00:00) da kuchlarning asosiy qismi, 40 foizi yo'naltiriladi. Bu bozorlar va ko'ngilochar maskanlar atrofida xavfsizlikni kuchaytirish imkonini beradi. Tungi vaqt (00:00–08:00) da qolgan 30 foiz xodimlar patrull xizmati va osoyishtalikni ta'minlash-

ga mas'ul etib belgilangan. Bunday taqsimot resurslardan oqilona foydalanish va vaziyat o'zgarishiga tezkor munosabat bildirish samaradorligini oshirdi.

Zamon shiddat bilan rivojlangani sayin ichki ishlar tizimi ham davr talablariga mos ravishda odimlamoqda. Xodimlarning texnik jihozlarni nafaqat ishni tezlashtirdi, balki shaffoflikni ham ta'minlamoqda. Har bir xodim bodi-kamera va zamonaviy planshet bilan ta'minlangan. Bu esa kundalik hisobotbozlikni kamaytirib, asosiy vaqtni profilaktikaga qaratish imkonini beradi.



Planshetlardagi GPS tizimi orqali har bir patrullning qayerda ekanligi masofadan turib nazorat qilinadi. Ilgari shubhali kimsalarning shaxsiga oydinlik kiritish uchun ularni bo'limga olib borish talab etilgan bo'lsa, endilikda planshetdagi maxsus baza orqali bu ishni joyida, fuqarolarning e'tirozlariga sabab bo'lmagan holda, amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, xizmatda foydalanilayotgan yangi «Cobalt» ru-



sumli avtoulavlarning barchasi qidiruv bazasiga ulangan videokameralar bilan jihozlangan bo'lib, ular hududdagi vaziyatni masofadan turib kuzatish va tahlil qilishda beqiyos yordam bermoqda.

Ko'rilgan chora-tadbirlar hamda yangi tizimga o'tilgani o'z sama-

shaxslarni aniqlashda esa safdorlar D.Sayfuddinov D.Kulbayev hamda O.Ergashevning sergakligi qo'l kelmoqda. Shuningdek, inspektorlar, kichik serjant B.Urazimbetov, safdorlar – N.Bekturganov hamda I. Rahmatovni namuna sifatida ko'rsatsak arziydi.

Osoyishtalikni ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda mahalla yetiligi hamda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari o'rtasida mustahkam hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, tungi xizmatni tashkil etishda PPX, profilaktika inspektorlari va qo'riqlash xizmati tezkor harakatlanuvchi guruhlar doimiy ravishda o'zaro aloqada bo'lib, yagona dislokatsiya asosida xizmat olib borishmoqda. Bu tizim hududda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatga nisbatan jamoaviy va tezkor chora ko'rish imkonini beradi.

Fuqarolardan yoki navbatchilik qismlaridan kelib tushayotgan xabarlar bo'yicha harakatlanish algoritmi tubdan takomillashtirilib, PPX avtoekipaji va piyoda yo'nalishidagi inspektorlar, profilaktika inspektori hamda Qo'riqlash xizmati guruhlarini bir vaqtning o'zida yo'naltirilishi natijasida jinoyatlarni «issiq izida» ochish va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni joyida qo'lga olish samaradorligi oshmoqda.

Joriy etilgan yangi tizim va zamonaviy raqamli texnologiyalar nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashda, balki aholi osoyishtaligini ta'minlashda ham qo'l kelmoqda. Inson omili va texnik imkoniyatlarning uyg'unlashuvi, ichki ishlar organlari xodimlarining yangi tizimdagi faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad ham xalqimizning roziligi va yurtimiz tinchligini barqaror saqlashdan iborat.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.  
**Abu KENJAYEV**  
olgan suratlar.

Toshkent shahri.



## Giyohvandlik — asr vabosi

## UMRNI SAROBGA ALISHTIRMANG

– Menga hayotimni boshqatdan boshlash imkoniyati berilganda edi.... Tasavvur qilyapsizmi, g'ujanak bo'lgan ochiq og'riqning zo'riga chidolmay ingrashlar odamni holdan toydirardi. Dori ichmasam miyamni katta bir qurt kemirayotgandek boshim g'uvillard. Negadir menga hamma dushmandek ko'rinardi. Olgan dozamning kayfi uncha uzoqqa bormasa yana boyagi og'riq a'zoi badanimni qaqshatardi. Qayerdan bo'lsa ham o'sha kuchli ta'sir qiluvchi dorini topishim kerak, deb zir yugurardim. Og'uni topib orom olardim. Ertasi kuni yana shu ahvol... Qamoqda o'tirganimda ozodlikning, shifoxonada yotganimda sog'liqning qanday buyuk ne'mat ekanligini tushunib yetdim...

Respublika ixtisoslash-tirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Jizzax viloyati filialida davolanayotgan bu inson o'g'irlik sabab qamalgan, hozirda giyohvandlikdan davolanish uchun bu yerga keltirilgan. O'g'irlikka esa zahri qotilga yetadigan pul topish maqsadida qo'l urganini ham yashirib o'tirmadi. Afsuski, muassasada giyohvandlikdan davolanayotgan har bir shaxsning mana shunday ayanchli o'tmishi, qayg'uli tarixi bor.

– Dangalini aytaman, men hayotda ko'p narsa yo'qotdim, odamlar mening ahvolimni bilishsin, faqat ism-sharifimni aytmang, iltimos, – deya gap boshladi yana bir suhbatdoshim. – Hammasiga o'zim aybdorman. Ota-onam yaxshi insonlar edi. Otam haydovchi edi, onam uy bekasi. Men o'rtancha o'g'il edim. Sinf doshlar bilan avval sigaret chekib ko'rdik, so'ngra nos. Bar-kafelarga borganimizda bizdan to'rt-besh yosh katta yigitlar nasha chekib ko'rishni taklif qilishdi. Pul topib sotib oldik. Ta'mi yoqdi, oxir-oqibat uning quliga aylandik. Men ota-onam-



ning gaplariga quloq solmadim. Ulardan yashirib iste'mol qilib yurdim. Uylanib, bolalik bo'lganimda ham aqlim kirmadi. Oilam bilan ajrashdim. Bir nafar farzandimni tirik yetim qildim. Aka-ukam, opa-singlim bilan yuz ko'rmas bo'ldim. Sababi ulardan dori uchun bir necha martalab qarz olib bermay ketdim. Keyin ular qarz bermay qo'yishdi...

Endi bu ko'chaga yaqin yo'lamayman. Ammo qani ota-yu ona? Qani sevimli yorim, shirin farzandim? Jon-jigarlarim? Endi qirq yoshga kirayapman, tuzalmas dardga chalib, umrim oxirlab borayotganini ham sezayapman. Mendan

nima qoladi?... (ko'ziga yosh qalqidi).

– Bu yigit asli Toshkent shahridan. Giyohvandlik sabab tug'ilgan uydan chiqib ketgan. Jizzax shahrida noiloj mardikorlik bilan kun kechirayotgan vaqtida giyohvand ekanligi aniqlanib, ichki ishlar xodimlari tomonidan majburiy tarzda davolanishga jalb qilingan. 98 o'ringa mo'ljallangan shifoxonada bemorlar alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikdan davolanishadi. Bu yerda tibbiy, psixologik va ijtimoiy choralarning har biri o'z ahamiyatiga ega. Eng muhimi, umidsizlikka tushmaslik, dardni yashirmasdan, undan xalos bo'lish

uchun intilish kerak. Davolasa bo'ladigan dard bu. Inson o'zining metin irodasi bilan har qanday dardni yenga oladi, – deydi Jizzax viloyati IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektor, kapitan O'rolbek Abduazimov. – Bugungi kunda mazkur muassasaga joriy yilning ikki oyida 33 nafar giyohvandlik va spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslar majburiy davolanishga joylashtirildi. Ularning nafaqat tibbiy yo'l bilan, balki kuchli iroda va psixologik qo'llab-quvvatlash orqali davo topishlari uchun hamkorlikda choralari ko'rilmogda.

«Yoshlar orasida giyohvandlik va psixotrop moddalar tarqalishining oldini olish» kompleks tezkor-profilaktik tadbirlari davomida ta'lim muassasalari va aholi o'rtasida sport musobaqalari, uchrashuvlar, seminarlar, bahs-munozaralar tashkil etilyapti. Giyohvandlikning ayanchli oqibatlarini yoritish yo'li bilan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Viloyatda mavjud 565 ta umumta'lim maktabi, 31 ta texnikum, oliy ta'lim muassasasi va 304 ta mahallada yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari, davra suhbatlari va uchrashuvlar o'tkazildi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining Jizzax shahridagi 29-sonli manzil-koloniya tashrifi uyushtirilib, narkojinoyatlar sodir etgan shaxslarning qismati haqida jonli misollar keltirildi. Jarayonda giyohvandlikning og'ir oqibatlarini, mudhish asoratlari haqida ta'sirchan tushuntirishlar berilib, toksikomaniya va kuchli psixotrop dori vositalari zanjiri giyohvandlikka yetaklashi uqtirilmoqda. Shuningdek, taniqli shaxslar ishtirokida chellenjlar o'tkazilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritilayapti. Targ'ibotning barcha ta'sirchan choralari ko'rish orqali yoshlarni ushbu illat ta'siridan saqlash – asosiy maqsadimiz.

**Muqaddas SAPAROVA,**  
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

## Halollikni shior qilgan xodimlar

2026-yil 30-yanvar. Tun yarmi bo'lishiga qaramay, Kichik halqa yo'lining Toshkent shahar Sergeli tumanidan o'tuvchi qismida YHXB YPX brigadasi YPX 2-batalyoni 6-safarbar guruhi xodimlari — safdor Akmal Qo'ldoshev hamda kapitan Shohrux Eshboltayev xizmat vazifalarini hushyorlik bilan bajarayotgan edi. Ular yaqinlashib kelayotgan «Nexia-3» rusumli, davlat raqam belgisi 75 C 650 BA bo'lgan avtotransport vositasiga to'xtash uchun ishora berishdi. Biroq haydovchi xodimlarning qonuniy talablariga bo'ysunmasdan, transport vositasini to'xtatmay, harakatini davom ettirdi.

## HAYDOVCHI MAST EKAN...


Xodimlar tomonidan ko'rilgan tezkor choralari natijasida avtotransport vositasi to'xtatildi. Tekshiruv jarayonida haydovchi 2002-yilda tug'ilgan D.Narzullayev mast holda transport vositasini boshqargani aniqlandi.

Mazkur holat yuzasidan haydovchiga nisbatan elektron ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, uning mashinasi jarima maydoniga olib ketilayotgan vaqtida, u holatni tegishli tartibda rasmiylashtirmaslik va qonuniy chora ko'rmaslik evaziga kapitan Shohrux Eshboltayevga 6 million so'm miqdoridagi pul mablag'ini pora sifatida taklif etdi.

2026-yil 31-yanvar kuni Qumariq ko'chasida joylashgan «Avto-Xurshid» MCHJga qarashli jarima maydonida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida haydovchi D. Narzullayev kapitan Sh. Eshboltayevga 300 AQSH dollari hamda 1 370 000 so'm pul mablag'larini pora tariqasida bermoqchi bo'lgan vaqtida, tezkor guruh tomonidan ashyoviy dalillar bilan ushlendi va qonun doirasida javobgarlikka tortildi.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Do'stlik forumi

# «DO'ST BILAN OBOD UYING...»

**Farg'ona viloyati yana bir muhim va tarixiy ahamiyatga ega anjuman – Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon do'stlik forumiga mezbonlik qildi.**



Forumning dastlabki tadbiri O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat chegaralari tutashgan joyda bunyod etilgan Do'stlik stelasi poyiga gulchambar qo'yish marosimi bilan boshlandi. Bu ramziy tadbirda turli mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlar jam bo'lib, o'tmishdan meros bo'lib kelayotgan do'stlik an'analari yodga olishdi. Stela poyiga qo'yilgan rang-rang gullar esa xalqlar o'rtasidagi hurmat va e'tiborning timsoliga aylandi.

Tadbirda Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston, Tojikiston va Ozarbayjon davlatlaridan olimlar, ekspertlar, jamoat tashkilotlari vakillari, milliy madaniy markazlar rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi. Ular bir ovozdan bu kabi tadbirlar mintaqaga barqarorligi va o'zaro ishonchni mustahkamlashda muhim o'rin tutishini ta'kidlashdi.

– Bugun guvoh bo'layotganimiz oddiy tadbir emas, balki xalqlarimizni bir-biriga bog'lab turgan mustahkam ko'prikdir, – deydi Tojikiston Respublikasi So'g'd viloyati O'zbeklar madaniyat va ma'rifat markazi raisi o'rinbosari Hakimjon Zokirov.

– Do'stlik stelasi nafaqat yodgorlik, balki o'tmish, bugun va kelajakni bog'lab turgan ma'naviy ramzdir. Bu yerdagi muhit do'stlik qadrini yanada chuqurroq his qilishga undaydi.

Forum doirasida Farg'ona shahridagi «Do'stlik» uyida turli millat va elatlarning milliy hunarmandchiligi, amaliy san'ati, milliy taomlari va liboslari namoyish etildi. Mehmonlar ko'rgazmalarini tomosha qilarkan,

madaniyatlarimiz qanchalik rang-barang bo'lmasin, ularni birlashtirib turuvchi umumiy qadriyat – do'stlik va insoniylik ekanligiga yana bir bor amin bo'lishdi.

Anjuman davomi sifatida Farg'ona davlat universiteti Qahramon Sariyev Yangi O'zbekistonda turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va

Qahramon Sariyev Yangi O'zbekistonda turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va



tida bo'lib o'tgan «Do'stlik stelasi – qardosh mamlakatlar o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, ishonch va strategik sheriklik ramzi» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya zamonaviy geosiyosiy jarayonlar fonida o'zaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish masalalariga bag'ishlandi.

Forumning uchinchi kunida o'tkazilgan «Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon do'stligining yangi davri» mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'z olgan Farg'ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov hamda O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari qo'mitasi raisi

do'stlik muhitini mustahkamlash, xorijiy davlatlar, ayniqsa, qo'shni mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganini alohida qayd etishdi.

Konferensiya davomida ishtirokchi davlatlar vakillari, olimlar va siyosatchilarning mavzuga oid dolzarb ma'ruzalari tinglanib, muhim taklif va tavsiyalar o'rtaga tashlandi.

Anjuman yakunida bir guruh ishtirokchilarga «Xalqlar do'stligi» ko'krak nishoni tantanali ravishda topshirildi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Farg'ona viloyati.

## ► Step toward public tranquility

# The advantages of the three-shift service system



According to captain Oybek Salayev, Deputy commander of the 1st Detachment of the PPS of the Chilanzar district Department for coordination of the activities of internal affairs bodies, the three-shift service system introduced following the presidential directives of January 2026 has elevated public safety by ensuring uninterrupted 24-hour patrolling. Under this new framework, 30% of the personnel are deployed during the day, 40% are concentrated during the high-risk period from 17:00 to 03:00, and the remaining 30% manage nighttime security. The integration of modern technology-including body cameras, GPS-enabled tablets, and «cobalt» service vehicles equipped with advanced surveillance cameras linked to search databases – has eliminated bureaucratic delays and allowed for on-site identification of suspects. These measures have led to a significant decrease in hooliganism and robbery during the first months of 2026, while crimes such as armed robbery and vehicle theft have been entirely eliminated. In the successful apprehension of criminals and wanted persons, the exemplary service of junior sergeant B. Urazimbetov and Privates N. Mukhamedov, Q. Bekmurodov, S. Jovliyev, I. Rahmatov, D. Sayfuddinov, D. Kulbayev, O. Ergashev, and N. Bekturganov has been particularly noteworthy. Furthermore, the close cooperation between the «mahalla seven» and various internal affairs departments continues to play a vital role in maintaining peace and achieving high levels of public satisfaction.

## ► No corruption

# THE DRIVER WAS INTOXICATED...



On January 30, 2026, while performing their duties on the small ring road in the Sergeli district of Tashkent, officers of the 6th mobilization group of the 2nd battalion of the Road patrol service brigade under the Tashkent city Internal affairs main bureau road safety service – private Akmal Kuldoshev and captain Shohrux Eshboltayev – signaled a «Nexia-3» vehicle to stop. After initially failing to comply, the vehicle was intercepted, and it was discovered that the driver, D. Narzullayev, was operating the vehicle while intoxicated. In an attempt to avoid legal action and the impoundment of his vehicle, the driver offered captain Shohrux Eshboltayev a bribe of 6 million UZS. On January 31, 2026, during a coordinated operational sting at the «Avto-Xurshid» impound lot, D. Narzullayev was caught red-handed while attempting to hand over 300 USD and 1 370 000 UZS to captain Sh. Eshboltayev as a bribe. The suspect was apprehended with physical evidence and held accountable according to the law.

## ► Harmony of safety and hospitality

# ENSURING SECURE TOURISM

Khorezm region is rapidly becoming a major tourism hub, with over 2.1 million foreign tourists visiting in 2025 and a projected 1.5-fold increase this year. With nearly 400 historical and cultural sites, creating a safe environment for guests from countries such as Russia, Spain, Germany, France, China, and Italy is a top priority for the Department of Ensuring Safe Tourism under the Khorezm regional Internal affairs department. Lieutenant Quvonchbek Rajabov, an inspector of the Public order maintenance group, notes that working in this field requires not only foreign language proficiency but also high human qualities and the ability to make swift decisions in non-standard situations. Personnel of the department actively conduct outreach meetings within the «Ichan Qala» complex, advising tourists on protecting personal data and staying vigilant against cyber fraud. The dedicated service of Internal affairs officers, including returning lost items and providing constant assistance, ensures that every guest leaves with positive impressions, thereby strengthening Uzbekistan's international reputation as a safe and welcoming destination.



## ► Psychological support

# A BEACON FOR WANDERING SOULS

A preventive event aimed at guiding minors and preventing delinquency was recently held at the Center for social and legal assistance to minors of the Public safety service crime prevention department under the Namangan regional Internal affairs department.



During the event, the Head of the center, lieutenant colonel Nigora Kayimova, engaged in an open dialogue with the youth, using real-life examples to explain that following the law is a means of self-preservation rather than a mere obligation. Qualified psychologists from the Namangan city department of pre-

school and school education were involved to conduct group and individual sessions using specialized techniques such as «Family» and «My favorite color» to analyze the emotional state of the teenagers and help them manage stress. Additionally, the center's staff conducts regular home visits to monitor the living conditions and school attendance of these minors. The ultimate goal of these comprehensive efforts-including parental cooperation and legal seminars – is to steer young people away from the path of lawbreaking and foster their development into well-rounded members of society.

## ► Enlightenment

# THEATER – A SCHOOL OF EDUCATION

The organization of theater visits for the personnel of the Internal affairs bodies and their family members has become a noble tradition, fostering a deeper appreciation for cultural and moral values.



As part of the ongoing spiritual and enlightenment initiatives and in celebration of World theatre day, employees from various units of the Surkhandarya regional Internal affairs department (IAD), along with their relatives, visited the regional musical drama theater. The creative ensemble presented a compelling performance dedicated to the life and scholarly legacy of the great thinker, Imam Termizi. This production resonated deeply with the audience due to its profound educational message and its vivid portrayal of fundamental values, such as the pursuit of knowledge and devotion to noble ideals, reinforcing the importance of spiritual integrity and national heritage in the professional and personal lives of the officers.

Translated by Munawar RASHIDOVA, docent.



## Kasb fidoyilari

# UNUTILMAS BOLALIK SAYOHATLARI

Xorazmning Xiva tumanida tugʻilib voyaga yetgan Hayotbek Hasanov bolaligida ota-onasi bilan Samarqandga sayohatga kelgan edi. Oradan yillar oʻtib, taqdir yoʻli uni aynan shu shaharga olib keldi.



2017-yilda viloyat ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilingan H. Hasanov bugungi kunda viloyat IIB Xavfsiz turizmni taʼminlash boshqarmasi Samarqand turistik markazida xavfsizlikni taʼminlash boʻlimi inspektori lavozimida xizmat qilmoqda.

– Oʻsha sayohat hech esimdan chiqmaydi. Ekskursovod bizga shahar tarixi, obidalari haqida gapirib berganida, koʻz oldimda shahar ertakmonand qiyofada gavdalangandi. Oʻsha tasavvurlar meni qattiq taʼsirlantirgan. Qarangki, har gal xorijlik sayyohlar bilan

suhbatlashganimizda «O-o, Samarqand, gu-ud, gu-ud», – deya eʼtirof etishsa, ana oʻsha hissiyotlarim uygʻonadi, oʻzimni ham turistdek his qilaman, – deydi lavhamiz qahramoni.

Uning ikki oʻgʻli ham shu diyorda tugʻildi. Kapitan Hayotbek Hasanovning hayoti shu yerda oʻz maʼnosini topdi. U shaharning tinchligi va xavfsizligini taʼminlash bilan birga mehmonlar va sayyohlarga shahar tarixidan soʻzlab beradi.

Bir kuni rahbari aloqa vositasidan ikki sayyoh adashib qolganini aytadi. H. Hasanov darrov ularni topib, qanday

transportdan foydalanish, qayerda ovqatlanish qulayligi, madaniy yodgorliklarning ish vaqti va boshqalar haqida maʼlumot berib, xizmat mashinasida aytgan manziliga eltib qoʻyadi.

– Fransiyalik mehmonlar bizga rahmat aytib, yurtimizda hamma insonlar samimiy ekan, nima soʻrasak, diqqat bilan tushuntirishadi, mehmonlarga alohida manzirat koʻrsatishadi, qadriyatlarimiz, oʻziga xos anʼanalaringiz bizni hayratlantirdi, deb aytganida oʻzbek ekanligimdan, kasbimdan faxrlandim, – deydi qahramonimiz.

Kapitan Hayotbek Hasanov xizmatdan boʻsh vaqtlarida nafaqat kitob oʻqiydi, balki ilm bilan jiddiy shugʻullanadi.

– Samarqand – ilm markazi, ilmiy ishim shu joy bilab bogʻliq, – deydi u. – Shu bois, xizmatdan ajralmagan holda Samarqand Davlat Chet tillar institutining mustaqil tadqiqotchisi sifatida «Taʼlim gumanizatsiyasining aksiologik asoslari» mavzusida ilmiy izlanishlar olib boryapman.

**Umida MAMADALIYEVA,**  
oʻz muxbirimiz.

*Samarqand viloyati.*

## Tergovchi yon daftaridan

# HAVOGA UCHGAN HAVOZALAR

Qibray tuman IIB Probatsiya guruhi hisobida turgan Eshqobil Hayitov (barcha ism-shariflar oʻzgartirildi) nazoratda boʻlishiga qaramay yana jinoyat yoʻliga kirdi. Bu gal u bir yoʻla ikki firibgarlik jinoyatini sodir etgani uchun sudning qora kursisiga oʻtirdi.



... Ona farzandi uchun ne bir shartlarga rozi boʻlmaydi, deysiz. Buni yaxshi bilgan Eshqobil mushtipar ayol – Xolida Nazarovani tuzogʻiga ilintirdi. Unga jazo muddatini oʻtayotgan oʻgʻliga tanish advokatlari orqali yordam berishni vaʼda qilib, undan bir ming AQSH dollari miqdordagi pul mablagʻlarini aldab qoʻlga kiritdi.

Eshqobil bu pul kamlik qilyapti, deya Xolida opaning uyiga yana bordi. «Hozir pulim yoʻq» degan javobni eshitgach, hovlida turgan havozalarga «ishqi tushadi». Jami narxi 30.000.000 soʻmga teng boʻlgan havozalarni bir oyga ijaraga foydalanish uchun berib turishni soʻradi. Ona noiloj rozi boʻldi.

Eshqobil uyiga kelishi bilan ularni notanish kishiga 10 million soʻmga shartta sotib yuboradi.

Tumanning «Navqiron» mahallasida yashovchi Bekmurod Baxtiyorov Eshqobilning navbatdagi oʻljasiga aylandi. Firibgar Bekmurodning uyida Xitoyda ishlab chiqarilgan sovunlarni koʻrib ularning yonidan ketolmay qoldi.

Xayolan, «Ha, Bekmurodboy, sening bu sovunlarning yerunda, sen hali mening sovunimga kir yuvmabsan» dedi-yu, bir amallab avrab, umumiy narxi 9.071.000 soʻm boʻlgan 504 dona sovunni bir kunda sotib berishga koʻndirib olib ketdi. Bekmurod esa bir kun tugul, umuman qorasini koʻrsatmay ketgan firibgar ustidan ariza yozdi.

**Xurshid OʻRINOV,**  
Zangiota tumani IIB  
huzuridagi Tergov boʻlimi  
tergovchisi,  
podpolkovnik.

*Toshkent viloyati.*

## Soha malikalari

# YUTUQLAR HALI OLDINDA

Yaqinda boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xotin-qizlarining V Respublika forumi doirasidagi tadbirlarda Jizzax viloyati vakillari qatorida qatnashgan mayor Sojida Saydaliyeva «Fidoi ayol xodima» koʻrik-tanlovida 3-oʻrinni qoʻlga kiritdi.



– Yildan yilga Forum ishtirokchilarining tajribasi va mahorati oshib borayotganiga guvoh boʻldim, – deydi Sharof Rashidov tumani IIB JXX HPB VY va YOPEG katta inspektor-psixologi, mayor Sojida Saydaliyeva. – Hududlardan saralangan ishtirokchilarning imkoniyatlari katta. Bu esa IIOda xizmat qilayotgan xotin-qizlarning salohiyatidan darak beradi.

Bu uning birinchi yutugʻi emas. Har yili «Toʻmaris izdoshlari» musobaqalarida faol qatnashadi. Oʻtgan yili kasbiy olimpiadadagi yuqori natijasi uchun «Kasb aʼlochisi» koʻkrak nishoni bilan taqdirlandi. Xoʻsh, sport uning kunlik faoliyatida qanday yordam beradi?

– Baʼzan jizzaki yoki zoʻravon fuqarolar bilan yuzma-yuz boʻlamiz, – deydi mayor S. Saydaliyeva. – Oʻz farzandini eplolmay, bizga yordam soʻrab murojaat qiluvchi ota-onalar ham bor. Voqea joyida xavfsizlikni taʼminlash, qolaversa oʻzimni himoya qilish uchun barqaror sport formasi menga koʻp bora yordam bergan. Tumanda 12 nafar inspektor-psixolog boʻlib, har birimizga 6 tadan maktab birlashtirilgan. Kun davomida taʼlim muassasalarida, zarur holda oilalarda boʻlib, nizoli vaziyatlar profilaktikasini amalga oshiraman. Yoshlar psixologiyasini oʻrganish maqsadida maktab psixologlari, lozim boʻlganda profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda tadbirlar oʻtkazamiz. Ochigʻi, nafas rostdashga fursat yoʻq. Ammo ishimni sevganim, oʻz tanlagan kasbim boʻlgani uchun hech qachon nolimayman.

– Oilamizda tartib-intizom ustun edi, – deya gapini davom ettiradi lavhamiz qahramoni. – Oʻzim ham batartiblikni yoqtiraman. Ota-onamning ishonchini oqlaganimdan, hayotda toʻgʻri yoʻlni tanlaganimdan mamnunman. Men uchun har bir oilada, jamiyatda tartib boʻlishi juda muhim. Chunki tartib bor joyda hayot bir maromda kechadi va osoyishtalik boʻladi. Qizalogʻim ham ehtimol mening kasbimni davom ettirar. Eng muhimi, u va barcha bolalar tinch muhitda baxtli boʻlsinlar.

**Muqaddas SAPAROVA,**  
oʻz muxbirimiz.

*Jizzax viloyati.*

# EKOLOGIYA QONUN HIMOYASIDA

Yaqinda davlatimiz rahbari ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 2026–2030-yillarga mo'ljallangan ustuvor umum-milliy loyihalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi. Ta'kidlanganidek, «Toza havo» umummilliy loyihasi, «yashil kamarlar»ni kengaytirish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish nafaqat investitsiyalarni, balki qat'iy huquqiy tartibga solishni ham talab qiladigan vazifalardir.

Tabiatni muhofaza qilishga qo'yiladigan talablar qanday o'zgarayotgani borasida ekologik huquq sohasi mutaxassisi – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi dotsenti, podpolkovnik Oybek Xolmo'minov bilan suhbatlashdik.

– Prezidentimiz tomonidan 2030-yilgacha bo'lgan keng ko'lamli ekologik maqsadlar ma'qullandi. «Toza havo» umummilliy loyihasini amalga oshirishda qaysi huquqiy mexanizmlar asosiy o'rin tutadi?

– Avvalo, e'tibor majburiy ijro bo'yicha tavsiyalarga qaratiladi. Texnologik nazoratni huquqiy maydonga integratsiya qilish «Toza havo» loyihasining asosini tashkil etadi. Eng muhim yangiliklardan biri sanoat markazlaridagi korxonalarda avtomatik monitoring postlarini majburiy tarzda o'rnatish bo'ladi.

Ma'lumotlar real vaqt rejimida yagona geoaxborot tizimiga uzatiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu talablarni e'tiborsiz qoldirgan subyektlar uchun kompensatsiya to'lovlarining sezilarli darajada oshirilishi nazarda tutilgan.

– Poytaxt hududida havo sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan issiqxona xo'jaliklariga nisbatan qanday choralar ko'rish rejalashtirilgan?

– Zararli moddalar (NO<sub>2</sub>, SO<sub>2</sub>, PM<sub>2,5</sub>) tashlanmalarini kamaytirish maqsadida Toshkent shahri va unga tutash hududlardagi issiqxona xo'jaliklarining energiya samaradorligi va quyosh nurlanishi darajasi yanada yuqori bo'lgan hududlarga bosqichma-bosqich ko'chirish nazarda tutilgan. Bu strategik yechim:

janubiy kengliklardagi tabiiy issiqlik ekologik jihatdan iflos yoqilg'idan foydalanishdan voz kechish imkonini beradi. Natijada mahsulot tan narxi 2,5 barobargacha kamayadi. 2026-yil 1-oktabrdan boshlab Toshkent hududida yangi issiqxonalarini tashkil etishga cheklov joriy etiladi. Shu bilan birga, davlat ko'chirilayotgan xo'jaliklar uchun infratuzilma, kreditlash va logistika bo'yicha imtiyozlar paketini belgilaydi.

– «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida joriy etilayotgan yangi yondashuvlar haqida ham so'zlab bersangiz.

– Loyiha ilmiy asoslangan yangi bosqichga chiqmoqda: hududlarda o'simliklarni o'rganish va iqlimlashtirish uchun bazaga aylanadigan 12 ta botanika bog'i va 16 ta dendrologiya bog'ini tashkil etish rejalashtirilgan. Asosiy obyekt poytaxtdagi maydoni 108 gektar bo'lgan Milliy dendrologiya bog'i bo'ladi. Bu yerda tomchilatib sug'orish tizimlaridan foydalangan holda o'n minglab daraxt va butalar ekiladi. Bog' biologik xilma-xillikni saqlash, havo sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar va seleksiya ishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

– Transport va yo'l nazorati sohasida qanday o'zgarishlar kutilmoqda?

– Motor yoqilg'isi standartlarini bosqichma-bosqich qat'iyashtirish, avtotransport vositalarini ekologik

tasniflash va «qizil», «sariq» hamda «yashil» toifadagi stikerlar berish nazarda tutilgan. Huquqiy baza texnik ko'rikdan o'tishni ishlangan gazlarning ekologik ko'rsatkichlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'laydi. Biz yirik shahar markazlariga faqat eng «toza» avtomobillarga kirishga ruxsat beriladigan tizim sari harakat qilmoqdamiz, bu esa tan olingan xalqaro amaliyotdir. Eskirgan avtoparkni yangilash dasturlarini amalga oshirish va jamoat transporti ulushini oshirish bo'yicha choralar ko'zda tutilgan. Ichki ishlar organlari uchun bu transport harakati nazoratining yangi usullari joriy etilishini anglatadi.

– Qurilish maydonlari ko'pincha chang manbayiga aylanadi. Imorat quruvchilarga qo'yiladigan talablar ham qat'iyashtiriladimi?

– Albatta. Ekologik ekspertiza xulosasini olish qurilishning qat'iy shartiga aylanmoqda. Yangi normalar quruvchilarni «yashil hududlar»ni loyihalash, materiallarni yopiq usulda saqlash va onlayn kuzatuv kameralarini o'rnatishga majbur qilmoqda. Ushbu qoidalarga rioya etmaganlik uchun javobgarlik kuchaytirilib, litsenziyalarni to'xtatishgacha bo'lgan choralar qo'llaniladi.

– Yerlarning cho'llanishi muammosi juda dolzarb. Tuproqni degradatsiyadan himoya qilishga qanday huquqiy mexanizmlar yordam beradi?

– Respublika hududining katta qismi qurg'oqchil zonada joylashgani sababli, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish milliy xavfsizlik masalasi hisoblanadi. Yangi loyihalar doirasida Prezidentimiz tashabbusi bilan «Green University» huzurida mintaqaviy ilmiy-tadqiqot xabi tashkil etilmoqda. U cho'llanish jarayonlarini boshqarish bo'yicha Markaziy Osiyodagi birinchi ilmiy markaz bo'ladi.

Markaz tuzilmasida 15 ta ixtisoslashtirilgan laboratoriya faoliyat



yuritadi, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va GIS-texnologiyalar asosida raqamli monitoring joriy etiladi. Bu milliy prognozlash tizimini yaratish, Orolbo'yida yashil qoplamni kengaytirish, yaylovlardan barqaror foydalanishni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Raqamli nazorat qoidabuzarliklar va noqonuniy daraxt kesish holatlarini tezkor aniqlashga yordam beradi hamda aybdorlarni javobgarlikka tortish uchun dalillar bazasini shakllantiradi.

– Oybek Jumayevich, bunday o'zgarishlar qanday samaradorlik ko'rsatkichlariga yo'naltirilgan?

– 2030-yilga qadar mamlakatda umumiy yashillik darajasini 30 foizgacha oshirish, zararli zarrachalar (PM<sub>2,5</sub> va PM<sub>10</sub>) konsentratsiyasini 20–25 foizga kamaytirish maqsad qilingan. Lekin eng muhimi bu – yangicha ekologik madaniyatni shakllantirish. Ekologiya loyihalarini amalga oshirish fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash va kelajak avlodlar salomatligi haqida g'amxo'rlik qilishga qaratilgan.

O'z muxbirimiz  
Radik TUMPAROV suhbatlashdi.



O'g'lim bilan faxrlanaman!

## «KO'ZIMIZDA SEVINCH YOSHI BALQISIN»

Har tong uyg'onganimda osuda va tinch hayot kechirishimizda farzandim – Samarqand tumani IIB TQX JQB tezkor vakili, katta leytenant Sherzod Xusainovning ham hissasi borligidan quvonaman. Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmati tufayli jamiyatimiz kundan-kun ravnaq topayotganidan, qanchalab oilalar xotirjam yashayotganidan va bu ishga farzandim ham hissa qo'shayotganidan ko'nglim yorishadi.

O'zim Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida talabalarga tarix fanidan saboq beraman. Shogirdlarim ba'zan «Domla, farzandlaringiz haqida gapirib bering, qaysi sohada ishlashadi?» deb so'rashadi.

Men ikki nafar farzandimdan to'ng'ichi Sherzod Xusainov ichki ishlar organlarida xizmat qilishini faxrlanib aytaman. Bolaligidanoq so'zlari burro, fikrlari teran edi. Ko'p savol berib, o'rganishga intilar, badiiy asarlarni o'qishni xush ko'rar, til o'rganishga qiziqardi, sport mashg'ulotlari jon-u dili edi, deyman. U Samarqand shahridagi 51-umumta'lim maktabini tamomlab, Rossiya Federatsiyasi IIV Belgorod yuridik institutiga o'qishga kirdi. Mana 2022-yildan beri viloyatimiz ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelmoqda.

Insonning kasbi bilan oilaviy qadriyatlari orasida hamohanglik, uyg'unlik bo'lishi juda muhim. O'g'lim ham bolaligidanoq biz – ota-onasining pand-nasihatlariga quloq tutdi. Ishida halol va kasbiga sadoqatli bo'lishga intildi, zimmasidagi vazifalarni mas'uliyat bilan bajardi. Ota-ona duosini olgan farzand kam bo'lmaydi.

Bir kuni rahbaridan tashakkurnoma oldik. «Shunday zukko, yuksak salohiyatli farzandni tarbiyalab o'stirganingiz uchun sizga rahmat. Fidoyi, izlanuvchan xodimning ota-onasiga minnatdorlik bildiramiz», – degan so'zlarni qayta-qayta o'qidim. Har o'qiganimda sevinchdan yuragim hapriqadi. Chunki bu satrlar nafaqat minnatdorlik, balki farzandimiz muvaffaqiyatiga berilgan yuksak baho edi.

**Shohista HASANOVA.**

*Samarqand viloyati.*



Sportni sev, sport bilan yasha!

## SALOMATLIK GAROVI

Ichki ishlar organlari xodimlari Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tashabbusi bilan «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasi hamda O'zbekiston Xalqaro shaxmat akademiyasida IIV markaziy apparati xodimlari o'rtasida sportning shaxmat, shashka va stol tennisi turlari bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

Xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning jismoniy va intellektual salohiyatini oshirish hamda jamoaviy hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida o'tkazilgan musobaqa qizg'in bahslarga boy bo'ldi. Musobaqa yakunida g'olib va faol ishtirokchilar diplom, medal hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

O'z muxbirimiz.



## Bir tuman tarixi

## VOBKENTMI, VAHOBKENTMI YO OBKENT YOKI KOMOT

**V**obkent tumani Sharqni G'arb bilan o'zaro bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan. Hozir ham «Buxoro – Toshkent» xalqaro yo'li tuman hududini kesib o'tgan. Bugungi kunda Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Eron va boshqa davlatlarning yuk avtomobillari poytaxtimizga, Farg'ona vodiysiga, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston-u Xitoygacha shu yo'l orqali yetib boradi.

Tuman 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Lekin Vobkentning tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. Taxminan XII asrlarda Varaxsha, Poykent shaharlaridan oqib o'tuvchi Zarafshon daryosi o'zanini o'zgartirib boshqa tomonga oqqan. Bu yerlarda yashovchi aholi esa So'g'd va Ko'hak daryosining yangi o'zani tomonga ko'chib o'tgan.

Tuman hududidan o'tgan asrlarda Vobkentdaryo va Qorako'ldaryo oqqan. Bularning birinchisi Vobkentdan tashqari, Peshko' tumani, ikkinchisi esa Romitan, Jondor, Qorako'l, Olot tumanlarini suv bilan ta'minlagan. O'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida Qorako'ldaryo bektilib, o'rni-ga Amu-Buxoro kanali qazildi. Ammo qo'shni Shofirkon, Peshko' tumanlarini zovurlarsiz tasavvur qilib bo'lmasdi. Shu bois ham Qorako'ldaryo o'zani keyinchalik zovur vazifasini o'tay boshladi.

Vobkent toponimi to'g'risida turli qarashlar mav-

jud. Ba'zi tadqiqotchilar uni o'g'uzlar shevasidagi «vob» yoki «vahobkent» so'zidan olingan bo'lib, «bo'z yer, qo'riq yerdagi qishloq» ma'nosi bilan bog'liq deb hisoblasa, yana boshqa tadqiqotchilar «obkent», ya'ni «suvli qishloq, suv bo'yidagi qishloq» ma'nolariga egaligini ta'kidlaydi. O'rta asrlarda Vobkent atrofida bir necha qishloq-qo'rg'onlar bo'lgan. Vobkentning g'arbida joylashgan Narshax qishlog'i shulardan biri hisoblanadi. X asrda yashagan tarixchi olim Narshaxiy shu qishloqda tavallud topgan. Narshax qishlog'i Muqanna qo'zg'oloni markazlaridan biri bo'lgan.

XIV asr hujjatlarida o'z qozisiga ega bo'lgan qasaba, ya'ni shahar sifatida Vobkana nomi bilan tilga olinadi. XVI asrdan boshlab esa ikki xil nom, ya'ni – Vobkana va Komot deb yuritilgan. XVII asrning tarixchi olimi Mahmud ibn Valining «Bahr ul-asror» kitobida Vobkent



tumani nomi Komot shaklida keltiriladi. Ya'ni, «koma» ariq, «ot» esa ko'plik shaklini bildiruvchi so'g'd tilidagi qo'shimcha bo'lib, ariqlar ko'p joy ma'nosini bildirgan. Keyinchalik nomlanish shaklini o'zgartirgan, lekin ma'no o'sha: Vobkent – Obkent. Ob – suv, kent – shahar, qal'a, aniqrog' qilib aytsak, suv, daryo, rud, irmoq yonida joylashgan shahar degani. Shu sababli ham tumanda suv bilan bog'liq qishloq,

guzar va shaharchalar juda ko'p uchraydi.

Shuningdek, bu hududda tarixiy manzillar, ziyoratgohlar, qadamjo va maqbaralar, masjid hamda xonaqohlar juda ko'p bo'lgan. Masalan, Vobkent minorasi, «Chashmayi Ayyub» maqbarasi, Abdulazizxon maqbarasi, Vobkent hammomi, So'fidehqon xonaqosi, Toshmachit va boshqa tarixiy obidalar mavjud. Qolaversa, bu manzildan

avliyolar, olim-u ulamolar ko'p yetishib chiqqan. Muhammad Narshaxiy, Hazrati Xoja Anjir Fag'naviy, Xoja Muhammad Shiriniy, Miri Kalon, Miri Xurd, Xoja Mir Azizon, So'fidehqon Vali, Hazrati Xoja Muhammad Vobkaniy kabi tarixiy shaxslar va yana o'nlab, olim-u adiblar, san'atkorlarni sanab o'tish mumkin.

**Mirzoqul AHADOV**  
tayyorladi.

Buxoro viloyati.

## Jazo – muqarrar

## HAQORATLAGANI KAMDEK...

**D**unyo ne'matlarga boy, rizq har kimga yetarli. Uni qo'lga kiritish uchun esa insondan halol mehnat qilish talab etiladi. Afsuski, peshona teri bilan topilgan luqmaga qanoat qilmay, oson va egri yo'llarni afzal biladigan kimsalar ham yo'q emas. Aynan shunday nopok niyat va qing'ir yo'llar sabab jamiyatda jinoyat degan illat hamon yashab kelmoqda.

... Doston (ismlar o'zgartirildi) yoshlik qilibmi, fotosuratlarini Instagramga joyladi. Binoyidek edi suratlar. Tanish-bilishlari «yoqtirma»ni bosishsa, yana ham ko'proq suratlar joylashga ilhomlantirardi. Ammo o'sha binoyidek suratlar boshiga balo bo'ldi. Nafisa ismli ayol uning suratlarini o'z sahifasiga joylay boshladi. Ruxsat so'ramay joylagani mayliku-ya, kamiga haqoratli so'zlar ham yozdi.

Doston avval bunday qilishi yaxshi emasligini bildirdi. Suratlarini joylamaslik, haqoratlashni bas qilishni so'radi. Lekin Nafisa anoyilardan emas ekan. Og'zaki gap unga ta'sir

qilmadi. Chunki avvalboshdan uning maqsadi – pul undirish edi.

Ko'p kunlik yozishmalar, telefon orqali muloqotlardan so'ng u Dostonga maqsadini ochiq aytdi. Joylangan postlarni o'chirishning narxini ham. Aniqrog'i, qilg'ilikni o'zi qilib, ustiga-ustak, 8 million so'm evaziga Doston bilan bog'liq yozishma va suratlarini o'chirishini bildirdi.

Dostonning boshi qotdi. So'ragan pulini bersamikan?.. Aslo yo'q! Pul yerda yotgan xazon emaski, birovga shunchaki berib yuborsang. Odam o'z or-nomusini pulga sotib olarkanmi hech zamonda? Yo'q, tovlamachi qonuniy jazosini olishi kerak.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

U ikkilanib o'tirmadi. Jizzax viloyati IIBga borib, ariza yozdi. Shu murojaat asosida viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi Kiberxavfsizlik bo'limi xodimlari tomonidan maxsus tezkor tadbirlar boshlandi.

... Jizzax shahridagi «Olmazor» mahallasi hududidagi ko'p qavatli uy oldida uchrashishga kelishgan Doston Nafisaga hozircha 5 million so'm pul olib kelganini ma'lum qildi. Ayol esa bunga qanoat qilmay, qolgan pulni ham tez kunda topib kelishini qizishib tushuntirayotgan paytda ichki ishlar organi xodimlari qanday qilib uning oldida paydo bo'lganini ham payqamay qoldi.

Ayolga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Endi u qilmishiga yarasha qonun oldida javob berishi tayin. Zero, jinoyatga jazo muqarrar.

**Shohrux FAYZULLAYEV,**  
kapitan.

Jizzax viloyati.

# MA'RIFAT BO'STONI ADABIY DO'STLIK — ABADIY DO'STLIK

*Jahon shodliklari yig'lsa butun,  
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.*

Abu Abdullo RUDAKIY

O'zbek-tojik xalqlari do'stligi uzoq tarixga ega. Ularning qavm-qardoshlik rishtalari muqaddas «Avesto» kitobi sarchashmasidan oziqlangan. O'zaro aloqalar eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu ikki xalq vakillari bir-biri bilan hamkorlik, oldi-berdi, bordikeldi qilgan, qo'ni-qo'shni, quda-anda bo'lgan, bir daryodan suv ichgan.

O'zaro ilmiy-adabiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-siyosiy munosabatlar asrlar o'tgani sayin rivojlanib boravergan. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu hamkorlik mamlakatlarimiz rahbarlarining rahnamoligida yangi bosqichga ko'tarildi. Komil ishonch bilan aytishimiz mumkinki, ikki qondosh, jondosh xalqning do'stlik aloqalari toabad davom etajak.



## PANJIKENTLIK DAHO

Fors-tojik she'riyati asoschilaridan biri Abu Abdullo Rudakiy Tojikistonning Panjkent tumani Panjrudak qishlog'ida taval-lud topgan. Uning taxallusi ham bevo-sita tug'ilgan qish-log'ining nomi bilan bog'liq. Yoshligidan she'riyat va musiqa-ga ixlos qo'ygan, adabiyotni, arab tilini o'rgangan. Zamo-nasining mashhur cholg'uchisi Abdul Abbas Baxtiyordan musiqa bo'yicha ta'lim olgan; barbat, chang, ud, rud kabi cholg'u asboblarni chalishni bilgan.



Rudakiyning she'riyat va musiqa-dagi mahoratini eshitgan Buxoro hukmdori Nasr ibn Ahmad Somoniy uni saroyga taklif etgan. Shoir Buxoroda vazir Abul Fazl Bal'amiy homiyligida ijod qilib, katta obro' qozongan. Manbalarda Rudakiy she'riyati 100 ming baytdan iboratligi qayd etilgan. Lekin bizga qadar uning ming bayt asari yetib kelgan.

Shoirning she'rlari Munirxon Muinzoda va Shoislom Shomuhamedov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ijodkor haqida «Rudakiy» dramasi va «Shoirning qismati» kinofilmi yaratilgan. Rudakiy nomidagi Tojikiston Davlat mukofoti ta'sis etilgan.



## BIR HOVUCH DUR

*Har ishdakim inson  
ko'rsatur himmat,  
Tikan ham guldasta  
bo'lur oqibat.*

Sa'diy SHEROZIY



Kimning qo'lida quyidagi besh narsa jilovi bo'lsa, yaxshi hayotining garovi bo'lur: birinchisi – tansihatlik, ikkinchisi – omonlik, uchinchisi – rizqining mo'lligi, to'rtinchisi – sodiq do'st va beshinchisi – farog'at. Kimki shu besh narsadan mahrum etilgan – xush hayot eshigi uning oldida bekilgan.

Abdurahmon JOMIY



*Bir g'arib ko'nglini qila  
olsang shod —  
Yaxshidir yer yuzin  
qilgandan obod.  
Lutfing-la bir dilni qul qila  
olsang,  
Afzaldir yuz qulni qilmoqdan  
ozod.*

Umar XAYYOM



## O'ZBEGIM TOJIK BILAN

*Do'st-u qardoshdir azaldan  
O'zbekim tojik bilan,  
Ikkisi bir bayt g'azaldan  
O'zbekim tojik bilan.  
Qay yo'sin aylay qiyos men  
Bul shirin do'stlik so'zin,  
Totlidir boldan, asaldan,  
O'zbekim tojik bilan.  
Baxtga yor doim Navoiy  
Toki Jomiy bor ekan,  
Biz ular qo'ygan tamaldan,  
O'zbekim tojik bilan.  
Fahm etib boqsang agarda,  
Biz qo'sha sayyoramiz,*

*Bu Ali so'zlar Zuhaldan,  
O'zbekim tojik bilan.  
Bir egatning boshi sen-u  
Bir egatning boshi men  
Yer ekib tinmas hamaldan,  
O'zbekim tojik bilan.  
Bul qardron ikki do'stga  
Xohishimdir, to abad  
Topsa bir ma'no masaldan,  
O'zbekim tojik bilan.*

Abdulla ORIPOV,  
O'zbekiston Qahramoni,  
Xalq shoiri.

# РАҲМАИЛ БЎЛАЙЛИК, РАҲМАТ ТОПАМИЗ

**Тезкор замонда яшайпмиз. Ҳар доим нимагадир шошилаемиз, бир вақтнинг ўзида кўп юмушларни бажаришни истаймиз. XXI аср инсонга жуда кўп энгилликларни тортиқ этган бўлса-да, гўё орамиздан меҳр-оқибатни олиб кетгандек туюлади. Яқинларимизни, ҳатто ота-онамизни йўқлаш, қўнғироқ қилиб ҳол-аҳвол сўрашга-да фурсат тополмай қоламиз баъзида.**

«Раҳмат» сўзи арабчада юмшоқлик, назокат, мулойимлик, раҳм қилиш, ачиниш, меҳрибонлик каби маъноларни англатади. Шунингдек, ота-оналарга раҳм-шафқат қилиш, фарзандларга, аҳли аёлларга меҳрибонлик қилиш, қариндош-уруғларга чиройли муомала қилиш, етимларга, мискин-бечораларга, бетобларга, майиб-мажруҳларга юмшоқ кўнгиллик билан муносабатда бўлиш ҳам раҳматдир.

Афсуски, бугунги кунда инсонлар орасида раҳмдиллик, меҳрибонлик каби фазилятлар камайиб бораётганини кўрамиз. Ака-ука, опа-сингил ва қавм-қариндошлар ўртасидаги оилавий низоларнинг аксарияти мерос, уй-жой, мол-мулк талашилар ортидан келиб чиқаётгани ҳеч кимга сир эмас. Кўп ҳолатларда бир ота-онадан туғилган ака-ука, опа-сингиллар мулк



талашилари оқибатида «юз кўрмас» бўлиб, очикдан-очик душманга айланишади. Бу душманлик узоқ йиллар, баъзан умрбод давом этаётганининг гувоҳи бўлмоқдамиз.

Юқоридагилардан хулоса шуки, ўзгаларга раҳмдил ва мурувватли бўлиш энг улуғ фазилятлардан ҳисобланиб, ҳар бир инсон ўзида мазкур фазилятнинг зиёда бўлишига ҳаракат қил-

моғи лозим. Инсондаги раҳмдиллик ва меҳрибонлик унинг маънавий гўзаллигидан, нозик табиат эгаси эканидан далолат беради. Зеро, раҳмдиллик туйғуси қонимизга шунчалик сингиб кетганки, ўзаро меҳр-оқибатли бўлиш, катталарга ҳурмат, кичикларга иззат кўрсатиш ҳамда кечиримлилик халқимизга хос фазилятга айланган.

Шундай экан, ҳар биримиз ўз аҳлимизга, атрофимиздагиларга, бутун инсониятга раҳмдил, меҳрибон бўлишимиз лозим. Бу дунёнинг ўткинчи матоҳлари учун ҳеч нарсадан тап тортмай, қон тўкаётган, юртларни вайрон қилиб, харобага айлантираётганлар кўпайиб қолган ҳозирги кунда раҳмдиллик, меҳр-мурувват айниқса долзарб аҳамият касб этмоқда. Бинобарин, яхши ниятлар билан ўстираётган фарзандларимизни, ёш авлодни халқимизнинг минг йиллик қадриятлари, инсонийлик, сажоват, бағрикенглик каби фазилятлар руҳида тарбияласак, албатта, орзу-умидларимизга эришамиз.

**Гайратулла ШУКУРОВ,**  
**Ўзбекистон**  
**Республикасида хизмат**  
**кўрсатган маданият ходими.**

## МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(6 – 12 апрель)

**Кўй (21.03 – 20.04).** Ҳафта якунигача тўпланиб қолган барча ишларни ҳал этишга ҳаракат қилинг. Вақт ўтиши билан уларни бажариш қийинчилик туғдириши мумкин. Ўзингиз учун вақт ажратинг, масалан, оқшомлари сайрга чиқинг, ҳафта сўнгида мароқли дам олинг.

**Бузоқ (21.04 – 20.05).** Бу даврда хоҳ иш, хоҳ шахсий ҳаётда бўлсин, чалкашлик ва кўнгилсизликлар кузатилиши мумкин. Қанча ҳаракат қилманг, барибир уларни тартибга сола олмайсиз. Аммо бу молиявий муаммоларни бартараф этишга асло ҳалақит қилмаслиги керак.

**Эгизаклар (21.05 – 21.06).** Айни давр ўзингизга вақт ажратиш учун қулай вақтдир. Ишда рағбатлантириш олиш ёки лавозимингиз кўтарилиши эҳтимоли юксак. Лекин ҳиссиётга берилиб, хатога йўл қўядиган вазиятлар юзага келиши мумкин. Шунинг учун ҳар бир иш-ҳаракатни яхшилаб ўйлаб кўриб, сўнгра амалга оширинг.

**Қисқичбақа (22.06 – 22.07).** Мазкур ҳафтада молиявий аҳволингиз бироз ёмонлашади. Хизмат сафари кўнгилсизлик келтириши мумкин. Лекин руҳингизни туширманг. Бошлаган ишларингизни пухта режа асосида юритинг. Дам олиш кунларини оила даврасида ўтказганингиз маъқул. Чунки барча кўнгилсизликларда далда бўлувчи – яқинларингиздир.

**Арслон (23.07 – 23.08).** Ўзаро тушунмовчилик ва муросага келмаслик яқинларингиз билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Ким биландир уришиш истагингизни бостириб, бу жиҳат сизга ушбу даврни енгиб ўтишга ҳалақит қилади. Вазиятдан чиқиш учун кўпроқ сайр қилинг ёки сафар ташкиллаштиринг.

**Паризод (24.08 – 23.09).** Жорий ҳафтада ўтмиш воқеаларини унутиб, янги ҳаёт бошлаш пайига тушасиз. Агар фаолроқ ҳаракат қилиб, ишларни тўғри йўлга қўйсангиз, ҳеч бир муаммодан чўчишга ҳожат қолмайди. Ҳафтанинг иккинчи ярмида шахсий ҳаётингизни тубдан ўзгартириб юборадиган янгилик кутилмоқда.

**Тарози (24.09 – 23.10).** Ҳафтанинг биринчи ярмида зиммангиздаги мажбуриятлар юки ортишига қарамай, барча музокаралар омадли кечади ва иш муносабатлари яхши йўлга қўйилади. Жума куни ҳар жабҳада эҳтиёткорлик, синчковлик талаб этилади. Бу даврда ўз саломатлигингизга жиддий эътибор қаратишни унутманг.

**Чаён (24.10 – 22.11).** Ҳафта оғир келади. Тушкунликка тушмасдан, кайфиятни кўтарадиган ишларни бажаришга киришсангиз, бари кўнгилдагидек ўтади. Пайшанба куни хонадонингизга меҳмонлар ташриф буюриши мумкин. Дам олиш кунлари имкон қадар тиникиб ҳордиқ чиқаринг.

**Ўқотар (23.11 – 21.12).** Ҳафта бошида соғлиғингиз бироз ёмонлашиб, бу барча ишларга ўз таъсирини ўтказиши мумкин. Лекин сиз даволанишга жиддий эътибор қаратинг. Чунки тансиҳатлик бўлса, қолган ишлар ҳам ўз изида кетади. Шанба, якшанба кунлари сизни кўргани қариндош ва дўст-биродарларингиз келишади.

**Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01).** Ҳафтанинг турли воқеа ва ҳодисаларга бой ўтади. Пул, муҳаббат ва хотиржамлик сари интилиб, ҳаракат қилишда давом этсангиз ниятларингизга эришасиз. Имкон қадар яхши танимайдиган, билмайдиган одамлар билан мулоқот қилманг. Шундай вазият юзага келганда ҳам тилингизга эҳтиёт бўлинг.

**Қовға (21.01 – 19.02).** Ушбу ҳафтада иш жойида муаммо чиқиши мумкин. Дўстларингиз гапига кириб, лавозимингиздан воз кечманг. Фидоқорлик, ўзига ишонч энг фойдали ҳислат эканини унутмасангиз, ҳаммаси изига тушиб кетади. Жума куни сафар ёки саёҳатга чиқиш эҳтимоли бор.

**Балиқ (20.02 – 20.03).** Молиявий масалалар туфайли дўстлик ришталари бироз тараф тортилиши мумкин. Масалан, сиздан қарз олган танишлар маблағни ўз вақтида қайтармайди. Мабодо ўзингиз қарздор бўлсангиз, энг аввало, шу масалани ҳал қилинг, фақат шундан кейин бошқа харажатлар ҳақида ўйласангиз бўлади.

Саломатлик сабоқлари

# ИММУНИТЕТ УЧУН ЗАРУР МОДДА



Рух моддаси вирус, бактерия ва бошқа микроорганизмларга қарши организм ҳимоясига биринчилардан бўлиб шайланувчи оқсиллар – интерферонлар микдорини оширади. Танада ушбу оқсиллар етишмаса, вируснинг танага бемалол кириши ва ҳужайраларни зарарлашига олиб келади.

Шунингдек, рух иммунитетизмининг асоси ҳисобланган тимус (айрисимон без) фаолиятини жадаллаштиради, организмдаги вирус ва бактерияларни тезда пайқаб, Т-ҳужайраларга дарак берадиган лимфоцитларни нобуд бўлишдан асрайди. Шу тариқа организм

Кўп ҳолларда витамин ва минераллар етишмаслиги, ёмон экология ёки нотўғри овқатланиш туфайли организмнинг ҳимоя қалқони ҳисобланган иммунитет заифлашиб, унинг микроб ва бактерияларга қарши курашиш қобилияти сусаяди. Иммун тизими меъёрида ишлаши эса кўп жиҳатдан рух моддаси мавжудлигига ҳам боғлиқ. Яъни организмнинг қаршилиқ қобилияти айнан шу минералга кўпроқ муҳтож. Унинг етишмаслиги оқибатида, аввало, сезиш – кўриш, ҳид ва таъм билиш хусусиятлари издан чиқади. Бу эса иштаҳа йўқолиши, овқат ҳазм қилишнинг бузилишига олиб келади. Шунингдек, чарчоқ, тушкун кайфият, суяклар мўртлашиши, тирноқларда оқ доғ пайдо бўлиши, соч тўкилиши каби ҳолатлар кузатилади.



иммунитети яширин хавфларга дарҳол жавоб қайтариб, уларни бартараф этади. Рух етишмовчилиги тимус атрофиясига (иш қобилиятининг сусайишига) олиб

келади ва бу бутун бошли иммун тизими фаолиятининг издан чиқишига сабаб бўлади.

Вирус тана бўйлаб ривожланиб, устунликни қўлга киритишни энг асосий вазифаси деб билади. У организмга тушиб, имкон қадар маккорлик билан ҳаракат қилади. Вирус ҳужайрага кириб, уни гўёки «нусхалаш аппарати»га айлантиради. Зарарланган ҳужайра бир қанча ўзи кабиларнинг нусхасини яратиб, ўзи қурбон бўлади. Бу ҳол ҳар бири билан юз бериб, натижада вирус организм бўйлаб осонгина тарқалади. Айнан шу сабабдан вируснинг ривожланиш жараёнини ўз вақтида тўхтатиш зарур. Бу вазифа айнан рухга юкланади ва у вирусли ҳужайрада ўзини-ўзи нобуд қилиш сигналини ёқади.

Ушбу минерал организмга, асосан, озиқ-овқат маҳсулотлари орқали қабул қилинади. Шу сабабдан таркиби рух моддасига бой бўлган майиз, туршак, ёнғоқ, кепакли нон, нўхат, бодом ва ўрик данаги, тут шиниси, картошка, помидор, гўшт ва сут маҳсулотларини кундалик таомномага киритиш мақсадга мувофиқдир.

**Феруза ЧОРИЕВА,**  
Тошкент шаҳар ИИББ Тиббиёт бўлими поликлиникаси шифокор-терапевти.



## РОВОЧНИНГ ФЙДАЛИ ХУСУСИЯТЛАРИ

У бир йиллик ўсимлик бўлиб, илдизидан кўпаяди. Асосан, тоғ ва даштларда учрайди.

Ровоч қадимда ошқозон-ичак касалликларини даволашда кенг қўлланилган. У буйрак ва ичаклар фаолиятини, озиқ-овқат сўрилишини яхшилади. Ўсимлик ўт ҳайдовчи восита сифатида ҳам ишлатилади. Одатда, ровочнинг илдизи ва пояси хомлигича истеъмол қилинади. Фарзандингиз овқат емай, сизни қийнаётган бўлса, ўсимлик поясидан беринг. Нордон таъми ва таркибидаги аскорбин кислотаси унинг иштаҳасини очади.



Здоровье

## ЧТО ОЗНАЧАЮТ ЩЕЛЧКИ В СУСТАВАХ?

Многие замечают щелчки в коленях, плечах или пальцах, особенно при приседаниях, поворотах или растяжке. В большинстве случаев это нормально и не связано с болезнью.



Есть несколько причин:

**1. Пузырьки газа в суставной жидкости.** Внутри сустава находится синовиальная жидкость. При движении давление меняется, и пузырьки газа могут резко «схлопываться» – отсюда характерный щелчок.

**2. Движение сухожилий и связок.** Иногда сухожилие слегка смещается через костный выступ и возвращается обратно – это тоже может давать звук.

**3. Особенности строения суставов.** У людей с повышенной гибкостью (гипермобильностью) суставы двигаются активнее, поэтому щелчки встречаются чаще.

**Когда это норма?**

Если нет боли, отека, ограничения движения, сустав не «заклинивает», то такие щелчки чаще всего физиологичны и не требуют лечения.

**Когда стоит обратиться к врачу?**

Обследование желательно, когда щелчок появился после травмы, возникает боль, есть ощущение нестабильности или «подламывания», сустав периодически блокируется, появляется отек. В таких случаях возможны повреждения мениска, связок или хрящевой ткани.

Небольшая профилактика – умеренные нагрузки, укрепление мышц вокруг сустава и контроль веса помогают снизить лишнюю нагрузку на суставы.

## КОГДА ПРОДУКТ УЖЕ НЕ БЕЗОПАСЕН

Мы привыкли бережно относиться к продуктам и стараемся не выбрасывать еду без причины. Но есть случаи, когда экономия может обернуться вредом для здоровья – и плесень один из них.



Многие думают: достаточно срезать испорченный кусочек, и продукт снова безопасен. На самом деле это опасное заблуждение. Плесень – это не только то, что мы видим. Ее невидимые нити и токсичные вещества уже могут распространиться глубже, даже если внешне продукт кажется «чистым».

Важно понимать: такие токсины не разрушаются при кипячении или жарке. Попадая в организм, они могут вызывать головные боли, провоцировать воспалительные процессы, вызвать отравление, аллергические реакции и оказывать нагрузку на печень.

Простое правило, которое стоит запомнить: если вы заметили плесень на мягких продуктах (джем, сыр, хлеб, суп) – выбрасывайте их полностью.

Здоровье всегда важнее любой сэкономленной копейки. Иногда правильное решение – это не «спасти», а вовремя избавиться.

## Ertaning egalari

## BEFARQLIKKA O'RIN YO'Q

**E**rtangi kun egalari bo'lgan yoshlarning tarbiyasi, huquqiy ongi va hayotga munosabati butun jamiyat taqdiri bilan bevosita bog'liq. Shu bois profilaktika ishlari kelajakni asrashga qaratilgan muhim ijtimoiy vazifadir.

Davlatobod tumanida Ichki ishlar bo'limi tomonidan voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish borasida o'tkazilayotgan keng qamrovli tadbirlarda voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog, katta leytenant Muhiddin Isoqjonov ham faol ishtirok etmoqda.

Joriy yil boshidan buyon tumandagi umumta'lim maktablari va mahallalarda olib borilayotgan profilaktik ishlar yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularni turli salbiy ta'sirlardan asrashga qaratilgan. Bu tadbirlar davomida yoshlarga qonun talablari tushuntirilib, mas'uliyat va intizomning ahamiyati haqida suhbatlar o'tkazilmoqda.

Amalga oshirilgan nazorat va profilaktika tadbirlari natijasida ayrim salbiy holatlar ham aniqlandi. Jumladan, huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlarning ota-onalariga nisbatan 60 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi. Bu holat ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati qanchalik muhim ekanini yana bir bor eslatadi.

Shuningdek, maktab hududlari va jamoat joylarida o'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida voyaga yetmaganlar tomonidan o'tkir tig'li buyumlarni olib yurish bilan bog'liq 6 ta holat aniqlanib, ushbu buyumlar belgilangan tartibda olib qo'yildi. Bunday holatlarga o'z vaqtida chek qo'yilishi ehtimoliy noxush voqealarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

— Ota-ona nazoratidan chetda qolgan yoshlarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda, — deydi katta leytenant Muhiddin Isoqjonov. — Ikki yarim oy davomida aniqlangan 6 nafar o'smir Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy

yordam ko'rsatish markaziga joylashtirilib, ularga zarur tarbiyaviy, ijtimoiy va huquqiy yordam ko'rsatildi.

Tumanda muntazam ravishda tungi reydlar ham o'tkazilmoqda. Bu tadbirlar davomida voyaga yetmaganlarning tungi vaqtda ko'ngilochar maskanlarda bo'lishining oldini olishga alohida e'tibor qaratildi. Nazorat tadbirlari natijasida 3 ta ko'ngilochar maskan egasiga nisbatan qonunchilikka muvofiq choralar ko'rildi.

Shu bilan birga, avtoreydlar davomida ham xavfli holatlar bartaraf etildi. Voyaga yetmaganlar tomonidan transport vositalarini boshqarish bilan bog'liq 5 ta holat aniqlanib, ushbu transport vositalari jarima maydonlariga joylashtirildi va tegishli tartibda choralar ko'rildi.

Bunday profilaktik tadbirlarning asosiy maqsadi yoshlarni xatodan asrash, to'g'ri yo'lga yo'naltirish va jamiyatda sog'lom muhitni ta'minlashdan iborat. Zero, yoshlar taqdiriga befarq bo'lmagan jamiyatgina barqaror taraqqiyotga erishadi. Chunki tinch va osoyishta hayot — avvalo, tarbiyali, ongli va mas'uliyatli yoshlar bilan barpo bo'ladi.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Namangan viloyati.



## Sud zalidan

Jamiyatda shunday illatlar borki, ular nafaqat qonunni buzadi, balki inson qalbidagi eng nozik tuyg'ularni ham vayron qiladi. Ular orasida eng og'iri bola taqdirini moddiy manfaatga almashtirishdir. Bu jinoyatgina emas, balki ona degan muqaddas nomga tushgan dog', inson qadriga berilgan og'ir zarbadir.



## O'CHIRIB BO'LMAS DOG'

Jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudida ko'rib chiqilgan ish ana shunday yurakni titratar holatlardan biridir. Sud materiallariga ko'ra, fuqaro Xolidaxon Mamedova (ism-shariflar o'zgartirildi) ikki nafar farzandini boqishda qiynalib, avval kichik farzandini qonuniy tartibda boshqa shaxs qaramog'iga bergan. Bu aslida ona uchun eng og'ir qarorlardan biri bo'lishi kerak edi. Ammo vaqt o'tishi bilan u bolasini qonuniy tartibda qaytarib olish o'rniga, yanada dahshatliroq qarorga qo'l urdi. Ochiqrog'i, bolasini sotmoqchi bo'ldi...

U Andijon shahridagi umumiy ovqatlanish shoxobchalaridan birida fuqaro bilan kelishgan holda, farzandi uchun 25 ming AQSH dollari talab qilib, shu mablag'ning 20 ming dollarini olgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Sud jarayonida ayblanuvchi o'z aybiga to'liq iqror bo'ldi. Ammo bu iqror oddiy so'z emas, balki kech bo'lgan pushaymonlikning og'ir yuki edi.

— Men onaman..., — deydi u sud zalida. — Lekin onaga yarashmaydigan ish qildim.

Qiynaldim, vaziyatdan chiqishning boshqa yo'lini topa olmadim. Ammo bu bilan o'zimni oqlamoqchi emasman. Nima ish qilib qo'yganimni kech anglab yetdim. Shu pul menga baxt keltirmasligini, sharoitimni yaxshilay olmasligini, aksincha, o'chirib bo'lmaz dog' kabi bir umr yuragimni tirnashini tushundim. Kechirim so'rayman... avvalo farzandimdan...

Guvohlar ko'rsatmalari, tezkor tadbir materiallari va boshqa dalillar yig'indisi sud tomonidan har tomonlama tahlil qilinib, mazkur harakatlar odam savdosi, ya'ni voyaga yetmagan shaxsni sotish jinoyati sifatida kvalifikatsiya qilindi. Sud hukmiga ko'ra, ayol Jinoyat kodeksining 135-moddasi 3-qismi «b» bandi bilan aybli deb topilib, unga 5 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Jazoni umumiy tartibli koloniyada o'tash belgilandi. Shuningdek, voyaga yetmagan bolaning keyingi taqdiri bo'yicha vasiylik masalasini hal etish tegishli tashkilotlar zimmasiga yuklatildi.

Hech qanday og'ir sharoit insonni vijdondan, qonundan, insoniylikdan ustun qo'ya olmaydi. Ayniqsa, bola taqdiriga daxldor qarorlar yuksak mas'uliyatni talab qiladi. Bugungi kunda bunday holatlarning oldini olish uchun nafaqat jazo, balki oilalarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, insonlarni og'ir vaziyatda yolg'iz qoldirmaslik muhimdir.

**Otabek MAMAJONOV,**  
jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudi raisi.  
**Saminjon HUSANZODA,**  
o'z muxbirimiz.

(Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.)

Бир қўшиқ тарихи

# БИЗГА БАҲОР БЕГОНАДУР БОРГАН САРИ...



2005 йилда экран юзини кўрган «Бегона баҳор» фильми ўз даврининг энг кўп муҳокама қилинди ва томошабинлар қалбига йўл топди. Фильм нафақат драматик сюжети, балки инсон руҳиятини чуқур акс эттиргани билан ҳам алоҳида ажралиб туради. Аммо унинг шухратини янада оширган муҳим омиллардан бири мусиқий безак, яъни саундтрек қўшиқлари бўлди. Улар орасида энг катта эътиборга сазовор бўлгани «Борган сари» қўшиғидир.



*Шошдан кетар бўлса Чоршамъ борар ери,  
Бухорою Фарғонадур борган сари.*

*Бизга баҳор бегонадур борган сари,  
Кўнглимиз ҳам вайронадур борган сари.*

*Шодон елиб юрар эдик авваллари,  
Энди умр ғамхонадур борган сари.*

*Толибдими яшамокдан жисми жоним,  
Тан ичра дард пинхонадур борган сари.*

*Шифо сўраб, борсам манзил-маконларга,  
Топар жойим хилхонадур борган сари.*

*Дўсту ёр ҳам йироқлашиб секин-секин,  
Адоватлар хуфёнадур борган сари.*

*Изланаман, йиғланаман, руҳим туяр,  
Ёлғиз Худо ҳамхонадур борган сари.*

*Шошдан кетар бўлса, Чоршамъ, борган ери  
Бухорою Фарғонадур борган сари.*

**Чоршамъ РЎЗИЕВ.**

Бу қўшиқ чуқур фалсафий мазмунга эга бўлган ғазал асосида яратилган. Шеърнинг илк мисралари 1988 йиллар атрофида пайдо бўлиб, 1998 йилга келиб тўлиқ шаклланиганини кўпчилик билмас керак. Дарҳақиқат, баъзан қўшиқдан кўра, шеърнинг қўшиққа айланиш тарихи янада қизиқ ва таъсирли бўлади.

– Ўшанда Фарғона водийсидан қайнотамнинг таъзиясидан қайтаётган эдим, – дейди шоир Чоршамъ Рўзиев бизга берган интервьюсида. – Қамчиқ довонидан ўтаётган пайтимда руҳимда аллақандай оғир ҳолат хукм сурарди: табиат кўм-кўк, замин лолаларга бурканган, аммо менинг ички кечинмаларим бу гўзалликка мутлақо мос эмас эди. Гўё баҳорга бегона одамдек ҳис қилгандим ўзимни. Шу руҳиятимда тилимга икки мисра келди:

*Бизга баҳор бегонадур борган сари,  
Кўнглимиз ҳам вайронадур борган сари...*

Шоир йўл-йўлакай тилида тинмай айланган мисраларни тоза варақча ёзиб қўяди, бироқ шеърни анча вақт давом эттира олмайди.

– Ижодкор табиати шундай: баъзан руҳият тайёр бўлмайди, шеър эса айнан кўнги ва руҳ ҳолатига боғлиқ, – дейди у. – Ниҳоят, 1998 йили ғазалга нуқта қўйдим. Энг кўп қийнаган савол инсон ҳаётининг охири нима билан тугайди, деган ўй эди. Яъни: баҳор бегона бўлиб бораётган бўлса, дўстлар узоқлашаётган бўлса, ҳаёт мураккаблашиб кетса – нажот қаерда? Шу изланишлар мени бир хулосага олиб келди: инсон учун энг ишончли ҳамроҳ – ёлғиз Аллоҳ. Шу фикр билан ғазални якунладим:

*Изланаман, йиғланаман, руҳим туяр,  
Ёлғиз Худо ҳамхонадур борган сари.*

Шеърнинг охиридаги сатрлар эса шоир ҳаётининг энг шахсий, энг нозик, инжа туйғуларини ифода этади.

дейилиши энгилгина қофиябандлик ёки лирик интрига эмас, балки чуқур маъноли эътирофдир. Бухоро – шоирнинг туғилган, илдиз отган, болалиги кечган юрт. Фарғона эса унинг умр йўлдоши, сирдоши ва маслакдоши бўлган Зулхумор аянинг туғилиб улғайган макони. Шундай қилиб, шоир умрининг қайси манзилига боришидан қатъи назар, унинг руҳий йўли иккита муқаддас маконга қайтади: бири – ўзининг илдизи, иккинчиси – унга муҳаббат ва ҳамроҳ, яъни фарзандларини берган аелининг юрти.

Шоир 2000 йили юздан ортиқ қўшиқбоп шеърларини жамлаб, «Айро йўллар» номли мўъжазгина шеърый тўпламини нашр эттирди. Тақдир тақозоси билан ўша даврда Фарғо-

нада ижод қилаётган хонанда Аҳрор Усмонов китоб дўконидан ушбу тўпламни сотиб олади. «Борган сари» ғазалини бир ўқишдаёқ қаттиқ таъсирланади. Айтишларича, ўша вақтда санъаткор жуда қийин, оғир шахсий вазиятни бошидан ўтказаётган экан. Шу сабабли ғазал гўё унинг тақдирини акс эттиргандек туюлади ва қўшиқни юракдан куйлайди.

– «Бегона баҳор» фильмини суратга олдик, энди унга саундтрек қўшиш керак эди. Шунда мен яқин дўстим, курсдошим – хонанда Умаржон Маҳкамбоевдан яхши бир қўшиқ тайёрлаб беришини илтимос қилдим, – дейди фильмнинг бош режиссёри Иброҳим Расулов. – У фильмга жуда мос келадиган, ўзи ҳар куни қайта-қайта тинглайдиган Аҳроржон Усмонов ижросидаги «Борган сари» қўшиғини тавсия этди. Шоир Чоршамъ Рўзиев билан учрашганимда бу ҳақда айтгандим, жуда хурсанд бўлиб кетди. Кейин қўшиқни куйлаган хонанда Аҳроржон Усмонов билан боғландим. «Борган сари» қўшиғи «Бегона баҳор» фильмида гўё иккинчи ҳаётини бошлади ва мухлисларга янада сеvimли бўлиб кетди, десам, муболаға бўлмайди.

Шундай қилиб, шоир қалбида туғилган мисралар, хонанда юрагидан чиққан оҳанг бирлашиб, ҳақиқий бадий мўъжизага – «Борган сари» қўшиғига айланди.

**Адолат ФАЙЗИЕВА,  
ўз мухбиримиз.**



## СТЕРЕОТАСВИР

Ушбу тасвир остида сирли ҳажмий (3D) расм яширинган. Топишга уриниб кўринг. Расмга қараган пайтингиз нигоҳингизни бўш қўйинг. Расм чапланиб кетгач, нигоҳни узмасдан секинлик билан узоқлашинг.



**Yoshlar – xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi.**

Shavkat MIRZIYOYEV

**MEN TANLAGAN YO‘L**

Har bir insonning umrida shunday bir bu-rilish nuqtasi bo‘ladiki, aynan o‘sha paytda u mas‘uliyatli qaror qabul qiladi, hayotdagi o‘z yo‘lini tanlaydi. Bu yo‘l esa insonning kelaja-gini belgilab beradi. Men ham ana shunday mas‘uliyatli qaror qabul qildim – ichki ishlar organlarida xizmat qilishdek mashaqqatli yo‘lni tanladim.

Bunday qarorga kelishim bejiz emas. Bolalikdan adolat, huquq-tartibot va tinchlik-oso-yishtalik tushunchalari menga juda yaqin bo‘lgan. Atrofimdagi insonlarga yordam be-rish, ularni himoya qilish, jamiyatda xavfsizlikni ta‘minlash kabi niyatlar qalbiga asta-sekin o‘rnasha boshladi. IIV Navoiy akademik litse-yida tahsil olayotganim bu niyatimni amalga oshirishimga katta imkoniyat beradi, deb o‘ylayman.

Litseydagi ta‘lim jarayonlari bilimimni oshirdi, meni qat‘iy tartib-intizomga o‘rgatdi, irodamni toblayapti. Har bir nazariy dars, har bir amaliy mashg‘ulot kelajakdagi kasbimga bir qadam yaqinlashtirayotganini his qilyapman. Bu yerda biz tengdoshlarim bilan faqat o‘quv-chilar emas, balki kelajakda xalq xizmatiga bel bog‘lagan yoshlar sifatida tarbiyalanmoqdamiz.

Bizga ingliz tilini mukammal o‘rganib jahon yoshlari bilan bemalol tillasha olishimiz uchun ushbu dargohda tahsil berayotgan Oydin Islomovadan, ichki ishlar organlaridagi ko‘p yillik tajribasiga tayanib, sohaning alifbosini o‘rgatayotgan iste‘fodagi podpolkovnik Otabek Shamsiyevdan, jismoniy qobiliyatlarimizni rivoj-lantirishga hissa qo‘shayotgan Jamol Xoliqov-dan, qolaversa barcha-barcha ustozlarimizdan cheksiz minnatdormiz.

Menga yaqinlarim tanlagan yo‘lim oson emasligini ko‘p aytishadi. Bu soha qanchalik mas‘uliyatli bo‘lmasin, jasorat va fidoyilikni talab qilmasin, niyatimdan qaytmayman. Maq-sadimga erishish uchun barcha sinovlarga tayyorman.

Bu yo‘lda bilim olishdan, o‘z ustida ish-lashdan va doimo olg‘a intilishdan aslo to‘x-tamayman. Yaqinda IELTS sertifikatini qo‘lga kiritdim. Muntazam sport bilan shug‘ullanyap-man, bu esa jismonan baquvvat, haqiqiy ichki ishlar xodimasi bo‘lishimda muhim ahamiyat kasb etadi. Men sermashaqqat, lekin sharafli yo‘lni tanlaganimdan faxrlanaman.

**Muqaddas MUZAFFAROVA,**  
2-bosqich o‘quvchisi.



**MUASSIS:**  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

**Bosh muharrir**  
polkovnik  
Bernora SADIKOVA

**Bosh muharrir**  
o‘rinbosarlari  
podpolkovnik  
Azizjon FAYZIYEV  
mayor  
Aziza BOHODIROVA

**Mas‘ul muharrir**  
Erkin SATTOROV

**Veb-dizaynerlar**  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

**Navbatchilar**  
Bobomurod TOSHEV  
Radik TUMPAROV

**TELEFONLAR:**

71-231-33-88;

**Obuna masalalari**  
**bo‘yicha:**  
71-231-38-74;  
97-420-89-24

**Web-site:** www.postda.uz  
**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r  
23402000300100001010.  
Bank kodi 00014.  
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
moliya vazirligi g‘aznachiligi.  
Shaxsiy h/v  
460010860262877031101179003  
STIR 200637499.

Gazeta O‘zbekiston matbuot va  
axborot agentligi tomonidan  
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam  
bilan ro‘yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Buyurtma № 907.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3.  
Hajmi – 6 bosma taboq.  
49764 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida  
chop etildi.  
Korxonaning manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko‘chasi 1A-uy.